

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**MAJBURIY RAQAMLI MARKIROVKALANISHI LOZIM BO‘LGAN MAHSULOTLAR
RO‘YXATINI KENGAYTIRISH BO‘YICHA TAJRIBA LOYIHALARINI AMALGA
OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

Majburiy raqamli markirovkalanadigan mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish maqsadga muvofiqligini tahlil qilish va baholash, shuningdek, ayrim turdagi mahsulotlarning yangi toifalarini raqamli markirovkalash mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining ayrim turdagi mahsulotlar yangi toifalarini raqamli markirovkalash mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha tajriba loyihalarini (keyingi o‘rinlarda — tajriba loyihalari) amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar:

Majburiy raqamli markirovkalash joriy etiladigan hamda tajriba loyihalari amalga oshiriladigan ayrim turdagi mahsulotlar ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

Raqamli markirovkalashni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalar va dasturiy ta‘minotlar bilan jihozlanadigan tadbirkorlik subyektlari — tajriba loyihasi ishtirokchilari ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq;

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo‘yicha tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom **3-ilovaga** muvofiq;

Suv va salqin ichimliklarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo‘yicha tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom **4-ilovaga** muvofiq;

Maishiy texnikalarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo‘yicha tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom **5-ilovaga** muvofiq;

Ayrim turdagi mahsulotlar yangi toifalarini raqamli markirovkalash mexanizmlarini ishlab chiqish tajriba loyihasini amalga oshirish bo‘yicha tadbirlar rejasi (“Yo‘l xaritasi”) **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

tadbirkorlik subyektlarining tajriba loyihalarini amalga oshirish jarayonida ixtiyoriy ishtirok etishi ularni qonunchilikda belgilangan ishlab chiqarish va majburiy markirovkalash talablariga rioya etishdan ozod etmaydi;

majburiy raqamli markirovkalanadigan mahsulotlarni raqamli markirovkalash va keyinchalik tovar aylanmasining barcha bosqichlarini kuzatish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “Asl belgisi” mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimida (keyingi o‘rinlarda — “Asl belgisi” MAT) jamlanadi va qayta ishlanadi.

4. Tajriba loyihalarini amalga oshirish davrida “CRRT TURON” mas‘uliyati cheklangan jamiyatga (keyingi o‘rinlarda — “Asl belgisi” MAT operatori) quyidagi vazifalar yuklansin:

tajriba loyihalarida ishtirok etuvchi tadbirkorlik subyektlariga markirovkalash kodlarini bepul tarzda taqdim etish;

mazkur qarorga **2-ilovada** keltirilgan tajriba loyihasi ishtirokchilari — tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko‘rsatayotgan bitta ishlab chiqarish liniyasida mahsulotlarni raqamli markirovkalash uchun zarur bo‘lgan uskunalarni va dasturiy ta‘minotni o‘z mablag‘lari hisobidan o‘rnatish va sozlash.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tajriba loyihalarini amalga oshirish davrida:

tajriba loyihalari ishga tushirilishini va kelgusida monitoring yuritilishini, metodik qo‘llab-quvvatlanishini, shuningdek, tajriba loyihalari ishtirokchilari — tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilishini;

tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali tajriba loyihalari amalga oshirilishi yuzasidan keng qamrovli tushuntirish va maslahat ishlari olib borilishini;

tadbirkorlik subyektlari — tajriba loyihalari ishtirokchilari tomonidan mazkur qaror bilan tasdiqlangan vaqtinchalik nizomlar talablariga rioya etilishi nazorat qilinishini ta'minlansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi tajriba loyihalari amalga oshirilishiga faol ko'maklashsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markaziga tajriba loyihalarida ishtirok etuvchi, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatdan o'tkazish va guvohnoma olish uchun murojaat qiluvchi tadbirkorlik subyektlarining arizasiga muvofiq ulardan yig'im undirmasdan, mahsulotlarning birlamchi va ikkilamchi qadoqlaridagi rangli sxemalarga oid ma'lumotlar o'zgartirilishini ta'minlash vazifasi yuklansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mazkur qarorga 2-ilovada ko'rsatilgan tadbirkorlik subyektlarining murojaatiga asosan ularni belgilangan tartibda zarur telekommunikatsiya xizmatlari bilan ta'minlansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasida ayrim turdagi mahsulotlarni raqamli markirovkalash mexanizmlarini bosqichma-bosqich ishlab chiqish bo'yicha tajriba loyihalari boshlanganligi haqida xorijiy davlatlar xabardor qilinishini ta'minlansin.

10. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 7-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilsin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha o'rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo'chqorov hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi Sh.D. Kudbiyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 20-may,
322-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 322-son qaroriga
1-ILOVA

Majburiy raqamli markirovkalash joriy etiladigan hamda tajriba loyihalari amalga oshiriladigan ayrim turdagi mahsulotlar

RO'YXATI

T/r	Mahsulotning nomi	Tajriba loyihasi boshlanadigan sana	Majburiy raqamli markirovkalashni bosqichma-bosqich joriy etish boshlanadigan sana*	TIF TN kodi
1.	Dori vositalari va tibbiy buyumlar	2021-yil 1-iyun	2022-yil 1-fevral	3003, 3004
2.	Suv va salqin ichimliklar	2021-yil 15-iyun	2022-yil 1-mart	2009, 2201, 2202
3.	Maishiy texnika	2021-yil 1-iyul	2021-yil 1-dekabr	8414, 8415, 8418, 8422, 8423, 8450, 8508, 8509, 8510, 8516, 8518, 8519, 8521, 8525, 8527, 8528

* TIF TN kodlarda keltirilgan mahsulotlar turlari bo'yicha majburiy markirovkalashni joriy etish muddatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi hamda "Asl belgisi" MAT operatori tomonidan Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda belgilanadi.

**Raqamli markirovkalashni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar bilan
jihozlanadigan tadbirkorlik subyektlari — tajriba loyihasi ishtirokchilari**

RO'YXATI*

T/r	Mahsulot nomi	Tadbirkorlik subyekti nomi	STIR
1.	Dori vositalari va tibbiy buyumlar	“Merrimed farm” MChJ	207 057 504
		“Djurabek laboratoriyes” MChJ	201 913 337
		“Remedi grupp” MChJ	206 985 269
		“Nobel farm sanoat” MChJ	203 340 511
		“Temur med farm” MChJ	301 298 751
2.	Suv va salqin ichimliklar	“Coca-cola Ichimligi Uzbekistan” MChJQK	200 798 458
		“International beverages Tashkent” MChJ	301 975 029
		“Fruit juice” MChJ	303 255 186
		“Nyrolife Bottlers” MChJ	204 559 521
		“Family Group” MChJ QK	303 457 361
3.	Maishiy texnika	“Artel engineering and management” MChJ	302 809 231
		“Foton” AJ	201 051 785
		“TEXNOPARK” MChJ	306 493 973
		“SINO” OAJ	200 714 964
		“Roison electronics” MChJ	204 017 032

* Ro'yxatga tajriba loyihalari ishtirokchilari bilan o'zaro muhokama natijalariga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga “Asl belgisi” MAT operatori bilan kelishgan holda o'zgartirish kiritish huquqi berilsin.

**Dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo'yicha
tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to'g'risida**

VAQTINCHALIK NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Vaqtinchalik nizom O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash bo'yicha tajriba loyihasini o'tkazish tartibini (keyingi o'rinlarda — tajriba loyihasi) shuningdek, markirovka kodlarini taqdim etish va markirovkalashni amalga

oshirishda harakatlar ketma-ketligini hamda tajriba loyahasini ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Tajriba loyahasining maqsadlari:

a) dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash hamda kuzatib borish mexanizmlarining to'liqligi, samaradorligi va yetarililigini baholash uchun:

dori vositalari va tibbiy buyumlarning, shu jumladan, davlat ehtiyojlari uchun sotib olinganlarining haqiqiylikini tasdiqlash;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga noqonuniy olib kirishga (import qilish), ishlab chiqarish (shu jumladan, kontrafakt mahsulotlarni) va aylanmasiga qarshi kurashish;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlarni olib kirish (import qilish), ishlab chiqarish va aylanmadan chiqarish sxemalaridan foydalanishni taqiqlash maqsadida dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchilarining o'zaro aloqasini ta'minlash;

raqamli identifikatsiyalash vositalari bilan belgilangan dori vositalari va tibbiy buyumlarni olib kirish (import qilish), ishlab chiqarish va aylanmasini hisobga olish tartibini standartlashtirish va unifikatsiya qilish;

b) dori vositalari va tibbiy buyumlarni majburiy raqamli markirovkalashga o'tishning maqsadga muvofiqligi va ketma-ketligini aniqlash.

3. Ushbu Vaqtinchalik nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

tajriba loyihasi — dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo'yicha tajriba loyihasi;

MMK MAT — “Asl belgisi” mahsulotlarni raqamli markirovkalash va kuzatilishi bo'yicha milliy axborot tizimi;

operator — “CRRT TURON” mas'uliyati cheklangan jamiyat MMK MATni yaratish, ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatishni, shu jumladan, dori vositalari va tibbiy buyumlarning raqamli yorlig'i va izlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha tarkibiy qismlarni o'rnatish va sozlashni amalga oshiradi;

dori vositalari (DV) — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek, odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

dori preparatlari (DP) — dozalangan, idishga joylangan — o'ralgan, qo'llanilish uchun tayyor dori vositalari;

dori moddalari (substansiyalar) — farmakologik, immunologik yoki metabolik faollikka ega bo'lgan yoxud tashxis qo'yish maqsadi uchun foydalaniladigan, tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik moddalar;

tibbiy buyumlar — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek, odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan buyumlar;

seriya — bir yoki bir qator ketma-ket texnologik jarayonlarda mahsulot bir xilligini kutish mumkin bo'lgan tarzda qayta ishlanadigan ma'lum miqdordagi xomashyo, o'ramlash materiallari va mahsulotlar;

partiya raqami — dorivor mahsulotning partiyasini aniq aniqlashga va ishlab chiqarish va boshqarish operatsiyalarining to'liq ketma-ketligini aniqlashga imkon beradigan raqamli, alifbo yoki harfiy-raqamli belgi;

saqlash muddati — dorivor preparat dori vositalarining texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga mos keladigan barcha talablarga to'liq javob berishi kerak bo'lgan davr;

dori vositalari va tibbiy buyumlar ro'yxati — ushbu vaqtinchalik nizomga 2-ilovaga muvofiq tajriba loyihasi doirasida raqamli markirovkalanadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni olib kirish (import qilish) — dori vositalari va tibbiy buyumlarni erkin muomalaga chiqarish (import) uchun bojxona rejimiga yoki reimport bojxona rejimiga joylashtirish maqsadida ularni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish — ishlab chiqarishni tashkil etish va sifat nazorati qoidalariga muvofiq to‘liq texnologik sikl bo‘yicha yoki uning alohida bosqichlarida ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan holda dori vositalari va tibbiy buyumlarni seriyali ishlab chiqarish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash — dorixonalar tomonidan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan foydalanishga ruxsat berilgan dori moddalaridan (substansiyalardan) tayyorlash;

dori vositalari va tibbiy buyumlar ulgurji savdosi — litsenziyada ko‘rsatilgan manzil (manzillar) bo‘yicha ombordan dori vositalari va tibbiy buyumlarni hajmini cheklamagan tarzda tarqatish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning chakana savdosi — dorixonalar va ularning filiallari tomonidan savdo maydonchasi va nazorat-kassa texnikasi bilan jihozlangan statsionar binolarda amalga oshiriladigan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni sotish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni muomalaga kiritish — dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarishda:

O‘zbekiston Respublikasi hududida — tovarlarni bunday shaxsga begonalashtirish yoki keyinchalik sotish uchun uni ishlab chiqaruvchidan yangi egasiga yoki boshqa shaxsga birlamchi pullik yoki bepul berish, uni tarqatish va (yoki) foydalanish;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida — bojxona organlari tomonidan tovarlarni erkin muomalaga (importga) yoki reimportga chiqarish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning muomalasi — O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish (import qilish), dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqish, saqlash, tashish, qabul qilish va topshirish, shu jumladan, ularni O‘zbekiston Respublikasi hududida sotib olish va realizatsiya qilish (sotish);

dori vositalari va tibbiy buyumlarni muomaladan chiqarish — oxirgi iste‘molchiga (yuridik shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, jismoniy shaxslarga) dori vositalarini va tibbiy buyumlarni sotish, dori vositalari va tibbiy buyumlarni yo‘q qilish (zarar yetkazish, yo‘qotish), dori vositalari va tibbiy buyumlarni O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida sotish (eksport qilish), namuna olish, tibbiy yordam ko‘rsatishda dori vositalari va tibbiy buyumlardan foydalanish;

dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi ishtirokchilari — O‘zbekiston Respublikasi hududida dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar;

mahsulotni raqamli markirovkalash — ushbu Vaqtinchalik nizomga muvofiq raqamli identifikatsiya vositalarini mahsulotga yoki uning o‘ramlariga yoki boshqa moddiy tashuvchiga yelimplash;

raqamli identifikatsiya vositalari — mahsulotga yoki uning o‘ramlanishiga yoki boshqa moddiy tashuvchiga tatbiq etish uchun mo‘ljallangan ikki o‘lchovli shtrix-kod shaklida taqdim etilgan mashinada o‘qiladigan shaklda markirovka kodi;

markirovka kodi — tovarlarning har bir birligini identifikatsiyalash maqsadida tuzilgan identifikatsiya kodi va tasdiqlash kodi to‘plami;

identifikatsiya kodi — mahsulot kodini va mahsulot raqamini o‘z ichiga olgan ramziy ketma-ketlik;

xavsizlik kodi — identifikatsiya kodi asosida taqlid qo‘shish rejimida operator tomonidan shakllanadigan va identifikatsiya kodining soxtalashtirilganligini aniqlashga imkon beradigan ramziy ketma-ketlik;

mahsulot kodi — tovar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan GS1 O‘zbekiston assotsiatsiyasining axborot resursida tavsiflanganda mahsulotga va/yoki tovar guruhiga berilgan logistik birliklarning buxgalteriya kodi;

MST — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlarning, ishlarning, xizmatlarning) statistik tasnifi;

TIF TN kodi — O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining mahsulot nomenklaturasi;

seriyalash — operator tomonidan markirovka kodlarini yaratish jarayoni;

buyurtmalarni boshqarish stansiyasi (BBS) — tovar aylanmasi ishtirokchisi va MMK MAT o‘rtasida axborot almashinuvi uchun mo‘ljallangan va tovar aylanmasi ishtirokchisi tomonidan markirovka kodlarini olish va identifikatsiya vositalari orqali tovarlarni markirovkalash to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni MMK MATga uzatish uchun foydalaniladigan dasturiy ta‘minot vositasi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning kuzatib borish — ushbu Vaqtinchalik nizomga muvofiq dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi ishtirokchilari tomonidan MMK MATda ro‘yxatdan o‘tgan ma‘lumotlar asosida dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasini tahlil qilish;

birlamchi (ichki) o‘ram — dori vositasi yoki tibbiy buyum bilan bevosita aloqada bo‘lgan konteyner yoki o‘ram;

ikkilamchi (tashqi) o‘ram — birlamchi (ichki) o‘ramda dori vositasi yoki tibbiy buyumni o‘z ichiga olgan dori vositasi yoki tibbiy buyumning konteyneri yoki o‘rami;

iste‘mol o‘rami — pirovard iste‘molchiga sotish uchun mo‘ljallangan dori vositasining yoki tibbiy buyumlarning ikkilamchi (tashqi) o‘rami, u bo‘lmagan taqdirda, birlamchi (ichki) o‘ram;

transport o‘rami — dori vositalarini yoki tibbiy buyumlarni birlamchi yoki ikkilamchi o‘ramlarning, ixtiyoriy to‘plamlarini birlashtirish, saqlash va tashish, shuningdek, joyini o‘zgartirishda uni shikastlanishdan himoya qilishni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan va mustaqil transport birligini hosil qiladigan o‘ram;

agregirlash — identifikatsiya qilish kodlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq ma‘lumotlarni saqlab qolish orqali iste‘mol o‘ramlarini transport o‘ramiga, shuningdek, transport o‘ramlarini keyingi bosqichdagi transport o‘ramiga kiritilgan va yaratiladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarning aylanma zanjiri bo‘ylab harakatini transport o‘ramini ochishga ehtiyoj qoldirmasdan kuzatib borishni ta‘minlash.

Agregirlash har qanday darajadagi kiritish imkoniyatiga ega:

birinchi darajali agregirlash — iste‘mol o‘ramlarini birinchi darajali transport o‘ramiga, masalan, qutiga birlashtirish;

ikkinchi va undan keyingi darajalarni agregirlash — transport o‘ramlarini yuqori darajadagi boshqa transport o‘ramiga, masalan, palet yoki konteynerga birlashtirish;

agregirlangan bojxona kodi — operator tomonidan shakllantiriladigan, mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarni bojxona deklaratsiyasidan o‘tkazishda qo‘llaniluvchi raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida qoidalarga muvofiqlikda mahsulotlarni identifikatsiyalash maqsadlari uchun agregirlash jarayonida mahsulotlarni birlashtiruvchi, o‘zi bilan har bir mahsulotning identifikatsiyalash kodlarini, jumladan, o‘ramning identifikatsiyalash kodlari birlashtirilishini taqdim etuvchi mahsulotlarning alohida majmuasi uchun belgilarning noyob ketma-ketligi;

shaxsiy kabinet — tajriba loyiha ishtirokchisiga taqdim etilgan MMK MATning maxsus axborot xizmati;

katalog — raqamli markirovkalangan mahsulotlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kataloglashtirish va saqlash uchun ishlatiladigan MMK MATning quyi tizimi;

ishtirokchilar ro‘yxati — tajriba loyihasi ishtirokchilarining ro‘yxati;

IV registri — identifikatsiya qilish vositalarining ro‘yxati;

elektron hujjat (EH) — elektron hujjat tafsilotlariga ega bo‘lgan, uni aniqlashga imkon beradigan elektron shaklda qayd etilgan ma‘lumotlar;

elektron hisobvaraқ — faktura (EHF) — O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan shakl bo‘yicha rasmiylashtiriluvchi, elektron hisobvaraқ-fakturalar aylanmasi tizimi operatorlari orqali chiqariluvchi va olinuvchi mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotilishini va xarid qilinishini tasdiqlovchi elektron hujjat (jumladan, qo‘shimcha hisobvaraқ-faktura va to‘g‘rilangan hisobvaraқ-faktura);

nazorat-kassa texnikasi — fiskal xotira bilan jihozlangan nazorat-kassa mashinalari, fiskal xotiradagi ma‘lumotlar yozib olinishi va saqlanishini ta‘minlovchi, fiskal hujjatlarni shakllantiruvchi

hamda ularning soliq organlariga fiskal ma'lumotlar operatori orqali topshirilishini, shuningdek, fiskal hujjatlar nazorat-kassa texnikasini qo'llash to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq qog'ozda chop etilishini ta'minlovchi boshqa qurilmalar hamda dasturiy-texnik majmualar;

fiskal ma'lumotlar operatori — onlayn tartibda fiskal ma'lumotlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va saqlanishini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi" davlat unitar korxonasi;

xizmat ko'rsatuvchi "servis" provayder — mahsulotlar aylanmasi ishtirokchisining topshirig'i bo'yicha markirovkalash kodining identifikatsiyalash vositasiga o'zgartirilishini va identifikatsiyalash vositasining iste'mol o'ramiga va (yoki) guruhlangan o'ramiga va (yoki) yorliqqa va (yoki) stikerga operator tomonidan taqdim etiluvchi distributsiyaning, nashrning va validatsiyaning dasturiy-apparat majmuasini qo'llash bilan tushirilishini hamda identifikatsiyalash vositalarining validatsiyasini amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

4. Tajriba loyihasining ishtirokchilari:

a) O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlari:

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi (Qo'mita);

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (Sog'liqni saqlash vazirligi);

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish agentligi (Agentlik);

b) dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi ishtirokchilari, shu jumladan;

ishlab chiqaruvchilar;

import qiluvchilar;

ulgurji savdo korxonalarlari;

chakana savdo korxonalarlari;

tibbiyot tashkilotlari va birlashmalari;

v) "CRRT TURON" MChJ — MMK MAT operatori;

g) fiskal ma'lumotlar operatori;

d) elektron hisob-fakturalarning rouming operatori.

5. Dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi ishtirokchilari ixtiyoriy ravishda tajriba loyihasida qatnashadilar. Tajriba loyihasida ishtirok etish uchun dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi ishtirokchilari operatorga ushbu Vaqtinchalik nizomga [1-ilovada](#) keltirilgan namuna bo'yicha to'ldirilgan tajriba loyihada ishtirok etish uchun arizani taqdim etadilar. Ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish tajriba loyihasini boshlash bilan cheklanmaydi.

6. Dori vositalari va tibbiy buyumlarning raqamli markirovkalanishi va kuzatib borilishi ushbu Vaqtinchalik nizomga [3-ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

2-bob. Dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar

7. Tajriba loyihasida ishtirok etish uchun dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchisi quyidagi shartlarni ta'minlaydi:

a) dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar:

tashkilotning amaldagi rahbari nomiga rasmiylashtirilgan elektron raqamli imzo (ishonchnomasiz imzo chekish huquqiga ega bo'lgan shaxs) mavjudligi (ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomalarning xorijiy egalari uchun elektron raqamli imzo mavjudligi zarur emas);

dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish va saqlash bo'yicha ishlar olib boriladigan ishlab chiqarish maydonchalarida va omborlarda, MMK MATga ulanish va elektron hujjat almashish uchun Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish nuqtalari mavjudligi;

MMK MAT bilan o'zaro aloqa uchun zarur bo'lgan elektron hujjatlarni yaratish va qabul qilish imkoniga ega bo'lgan kompyuter tizimining mavjudligi (shu jumladan, markirovka kodlarini berish yuzasidan so'rovni yaratish, markirovka kodlarini olish, markirovka kodlaridan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiylashtirish, elektron hisobvaraqlarni yaratish);

dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalashni ta'minlash uchun zarur bo'lgan markirovkalash uskunalari va dasturiy ta'minotning mavjudligi (shu jumladan, markirovka

kodlarini raqamli identifikatsiya vositalariga aylantirish va ularni yelimplash), shuningdek, ularning keyinchalik MMK MATga ulanishi;

farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya mavjudligi;

b) dori vositalarining ulgurji va chakana savdosi korxonolari:

tashkilotning amaldagi rahbari nomiga berilgan elektron raqamli imzo (ishonchnomasiz imzo chekish huquqiga ega bo'lgan shaxs) mavjudligi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash va sotish bo'yicha faoliyat olib boriladigan omborlar va savdo binolarida, MMK MATga ulanish va elektron hujjat almashish uchun Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish nuqtalari mavjudligi;

MMK MAT bilan o'zaro aloqa uchun zarur bo'lgan elektron hujjatlarni yaratish va qabul qilish imkoniga ega bo'lgan kompyuter tizimining mavjudligi (shu jumladan, elektron hisob-fakturalar bilan ishlashda);

Nazorat-kassa texnikasiga ulangan raqamli identifikatsiyalash vositalarini skanerlash va tanib olish uskunalari mavjudligi (chakana savdo korxonolari uchun);

farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning mavjudligi;

v) tibbiyot tashkilotlari:

tashkilotning amaldagi rahbari nomiga berilgan elektron raqamli imzo (ishonchnomasiz imzo chekish huquqiga ega bo'lgan shaxs) mavjudligi;

tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha tadbirlar olib boriladigan binolarda, MMK MATga ulanish va elektron hujjatlar almashish uchun Internet jahon axborot tarmog'iga ulanish nuqtalarining mavjudligi;

MMK MAT bilan o'zaro aloqa uchun zarur bo'lgan elektron hujjatlarni yaratish va qabul qilish imkoniga ega bo'lgan kompyuter tizimining mavjudligi (shu jumladan, elektron hisob-fakturalar bilan ishlashda);

dori vositalari va tibbiy buyumlar tibbiy maqsadlarda foydalanish sababli aylanmadan olib qo'yilishini qayd etish uchun maxsus (mobil) dastur o'rnatish uchun mo'ljallangan mobil qurilma.

3-bob. Ma'lumotni ro'yxatdan o'tkazish, o'zgartirish va aniqlashtirish, shuningdek, ishtirokchini tajriba loyihasidan chetlashtirish

8. Ishtirokchilar ro'yxatiga kiritish uchun tajriba loyihasida ishtirok etish istagini bildirgan dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasining ishtirokchisi MMK MAT rasmiy veb-saytida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan arizani shakllantiradi:

a) dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi va (yoki) import qiluvchi:

tajriba loyihasi ishtirokchisining nomi;

tajriba loyihasi ishtirokchisining STIRi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish va saqlash bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshiriladigan ishlab chiqarish maydonlari va omborlarning manzili (manzillari);

elektron pochta manzili;

aloqa qilinadigan telefon raqami;

farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) dori vositalari va tibbiy buyumlarning ulgurji va chakana savdosi korxonolari:

tajriba loyihasi ishtirokchisining nomi;

tajriba loyihasi ishtirokchisining STIRi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshiriladigan ombor va chakana binolarning manzili (manzillari);

elektron pochta manzili;

aloqa qilinadigan telefon raqami;

farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya to'g'risidagi ma'lumotlar;

dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchilari arizada qo'shimcha boshqa ma'lumotlarni ko'rsatishga haqlidir;

v) tibbiyot tashkilotlari:

tajriba loyihasi ishtirokchisining nomi;
tajriba loyihasi ishtirokchisining STIRi;
dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshiriladigan ombor va chakana binolarning manzili (manzillari);
elektron pochta manzili;
aloqa qilinadigan telefon raqami;
farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya to'g'risidagi ma'lumotlar.

9. Agar ariza ushbu Vaqtinchalik nizomning **8-bandiga** mos keladigan bo'lsa, operator real vaqt rejimida:

dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchisini ishtirokchilar reyestriga kiritadi;
dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasining ishtirokchisi uchun shaxsiy hisob raqamni ochadi;

dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasidagi ishtirokchini ishtirokchilar reyestriga kiritilganligi va shaxsiy kabinet ochilganligi to'g'risida xabardor qiladi.

Xabarnomada ishtirokchilar reyestrada dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasining ishtirokchisi to'g'risidagi ma'lumotlarga berilgan ro'yxatga olish raqamlari ko'rsatiladi.

10. Tajriba loyihasi ishtirokchisi o'zining shaxsiy kabinetida uning nomidan elektron hujjatlarni imzolash va (yoki) ularni MMK MATga yuborish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ushbu shaxslarning elektron raqamli imzo sertifikatlari shakllarini yaratadi va ishtirokchilar reyestrada qayd etadi.

11. Dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi subyektini tajriba loyihasining ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazishni rad etish uchun asos ushbu Vaqtinchalik nizomning **8-bandida** belgilangan talablarga javob bermaydigan ma'lumotlarning ko'rsatilishi, zarur ma'lumotlar taqdim etilmasligi va (yoki) operator tajriba loyihasi ishtirokchisini ro'yxatdan o'tkazishga to'sqinlik qiladigan ma'lumotlarni olishi deb hisoblanadi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchisi sudgacha (da'vo tartibida) yoki sudda ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

12. Ishtirokchilar reyestrada ma'lumotlar ushbu Vaqtinchalik nizomda belgilangan dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasida qatnashuvchini ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan tartibda o'zgartiriladi.

13. Operator dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchisini o'zining shaxsiy kabineti orqali taqdim etilgan arizasiga binoan bunday ariza berilganidan keyin 5 (besh) ish kuni ichida ishtirokchilar reyestrada chiqarib tashlaydi.

14. Farmatsevtika faoliyatini olib borish huquqini beruvchi litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Agentlik tomonidan operatorga real vaqt rejimida taqdim etiladi. Axborot almashish protokoli operator va Agentlik tomonidan Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishgan holda belgilanadi.

4-bob. Dori vositasi yoki tibbiy buyum haqida ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish

15. Dori vositalari yoki tibbiy buyumlar to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulotlar katalogiga kiritish uchun dori vositalari yoki tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchisi yoki import qiluvchisi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish haqida MMK MATga arizani shakllantiradi:

mahsulot kodi (GTIN);

MST kodi;

TIF TN kodi;

GTIN kodi (GS1 kodi);

dori vositasi yoki tibbiy buyumning ro'yxatga olish raqami;

dori vositasining patentlanmagan xalqaro nomi;

dori vositasi yoki tibbiy buyumning savdo nomi;

dori vositasi yoki tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi mamlakat;

dori vositasini yoki tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchining nomi;

dozalash shakli;

farmakoterapevtik guruh;

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq tuzilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ro'yxatiga kiritish;

dori vositasi yoki tibbiy buyumning o'rami turi;

iste'mol o'ramidagi birlamchi (ichki) yoki ikkilamchi (tashqi) o'ramlar soni (iste'mol o'rami uchun);

transport o'ramidagi iste'mol o'ramlari soni (transport o'ramlari);

o'ram fotosurati (oldingi ko'rinish, orqa ko'rinish).

Dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni mahsulot katalogida ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatiga operator tomonidan tajriba loyihasini amalga oshirish jarayonida aniqlik kiritilishi mumkin.

16. Agar arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar ushbu Vaqtinchalik nizomning **15-bandida** belgilangan talablarga javob bersa, Operator ariza qabul qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida:

dori vositalari yoki tibbiy buyumlar haqidagi ma'lumotlarni tekshirishni (moderatsiya qilishni) amalga oshiradi;

tajriba loyihasi ishtirokchisiga dori vositalari yoki tibbiy buyumlar haqidagi ma'lumotlarni tekshirish (moderatsiya) natijalari to'g'risida xabar beradi;

dori vositalari yoki tibbiy buyumlarni mahsulot katalogiga kiritadi.

17. Dori vositalari yoki tibbiy buyumlar mahsulot katalogiga kiritilishi operator tomonidan mahsulotning kartochkasida ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi elektron raqamli imzo bilan imzolangandan so'ng amalga oshiriladi.

18. Dori vositalari yoki tibbiy buyumlar to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot katalogida o'zgartirish va ushbu ma'lumotlarni mahsulot katalogidan chiqarish mahsulot katalogiga ma'lumot kiritish bilan bir xil ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

19. Dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomalar haqidagi ma'lumotlar operatorga Agentlik tomonidan real vaqt rejimida taqdim etiladi. Axborot almashish protokoli operator va Agentlik tomonidan Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishgan holda belgilanadi.

5-bob. Markirovkalash kodiga kiritilgan ma'lumotlarning tarkibi, iste'molchilarga dori vositalari va tibbiy buyumlarni o'ramlashda identifikatsiya vositalarini shakllantirish va qo'llash

20. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash GS1 DataMatrix ko'rinishidagi ikki o'lchovli shtrix-kod shaklida iste'mol mahsulotida raqamli identifikatsiyalash vositasini (markirovkalash kodini mashinada o'qiladigan shaklda) shakllantirish va qo'llash orqali amalga oshiriladi.

21. Raqamli identifikatsiya qilish vositasi operator tomonidan yaratiladigan markirovkalash kodini va 4 ta guruh ma'lumotini o'z ichiga oladi, ulardan birinchi va ikkinchi guruh iste'mol mahsulotining identifikatsiya kodini, uchinchi va to'rtinchi guruh esa tekshirish kodini shakllantiradi:

ma'lumotlarning birinchi guruhi — oldingi identifikatori (01) bo'lib, 14 ta raqamli belgidan iborat bo'lgan savdo birligining global identifikatsiyalash raqami;

ma'lumotlarning ikkinchi guruhi — oldingi identifikatori (21) bo'lib, 13 ta raqamli belgi yoki harfli-raqamli ketma-ketlikdan (lotin alifbosida) iborat savdo birligining individual seriya raqami. Ushbu guruh ma'lumotlari uchun ASCII belgilar jadvalida 29 kodli belgi mavjud bo'lgan maxsus ajratuvchi belgi, tugatuvchi belgi sifatida qo'llanilishi lozim.

ma'lumotlarning uchinchi guruhi — 4 ta belgidan iborat (raqamlar, lotin alifbosining kichik va katta harflari, shuningdek, maxsus belgilar) tekshirish kalitining identifikatori (individual tartib raqami) va dastur qo'llash kodi bilan identifikatsiyalanadi (91);

ma'lumotlarning to'rtinchi guruhi — 44 ta belgidan (raqamlar, lotin alifbosining kichik va katta harflari, shuningdek, maxsus belgilar) iborat tekshirish kodi va qo'llash kodi bilan identifikatsiyalanadi (92).

Ma'lumotlar guruhlari birinchisidan to'rtinchisigacha ketma-ket joylashtirilishi kerak.

22. Markirovkalash kodini raqamli identifikatsiya qilish vositasiga aylantirish tajriba loyihasi ishtirokchisi — iste'molchilar o'ramlarini shakllantiruvchi dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi tomonidan amalga oshiriladi.

23. Raqamli identifikatsiyalash vositalari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

ISO/MEK 16022:2006 xalqaro standartiga muvofiqligi "Axborot texnologiyalari. Avtomatik identifikatsiyalash va ma'lumotlarni yig'ish texnologiyalari. Data Matrix shtrix-kodining simbologiyasi" (ISO/IEC 16022:2006 "Information technology — Automatic identification and data capture techniques — Data Matrix bar code symbology specification");

xatolarni aniqlash va tuzatish funksiyasi DataMatrix ECC 200 ga teng yoki undan yaxshiroq; ASCII kodlashdan foydalanish;

iste'mol mahsuloti va guruh o'rami uchun kamida 0,255 millimetrli, transport o'rami uchun — kamida 2 millimetrli modul qo'llaniladi;

raqamli identifikatorning taxmin qilish ehtimoli juda kam bo'lishi, ya'ni barcha hollarda 10000 dan 1 dan kam bo'lishi kerak;

identifikatsiya kodida, tekshiruv kodida va tekshiruv kalitining identifikatorida foydalanishga ruxsat berilgan belgilar
ABCDEFGHIJKLMN OPQRSTUVWXYZabcdefghijklmnopqrstu vwx yz0123456789 !'%"&'*+-. /_.,:;=<>? qatorida keltirilgan.

6-bob. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash qoidalari

24. Dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasi ishtirokchilari dori vositalari va tibbiy buyumlarni mustaqil ravishda markirovkalaydi va raqamli identifikatsiya vositalarini yelimlash to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu Vaqtinchalik nizomga muvofiq MMK MATga taqdim etadilar.

25. Tajriba loyihasini amalga oshirish davrida operator tajriba loyihasi ishtirokchilariga — dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilari va importyorlarga quyidagilarni taqdim etadi:

markirovkalash kodlarini buyurtma qilish va qabul qilish uchun markirovkalash uskunalari va dasturiy ta'minoti, markirovkalash kodlarini raqamli identifikatsiya vositalariga aylantirish, raqamli identifikatsiya vositalarini iste'mol o'ramlarida yelimlash va yelimlangan raqamli identifikatsiya vositalari to'g'risida ma'lumotni MMK MATga yuborish.

buyurtmalarni boshqarish stansiyasi — MMK MAT bilan ma'lumot almashish uchun zarur bo'lgan dasturiy-apparat kompleksi, shu jumladan, buyurtma berish va markirovkalash kodlarini olish.

26. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

raqamli identifikatsiya vositalari tipografik usulda tayyorlangan maxsus belgilangan maydonda omborga jo'natishdan oldin to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish liniyasida yelimlanadi (o'lchami kamida 10*10 millimetr);

raqamli identifikatsiyalash vositalarining o'lchami va joylashishi iste'mol o'ramlarini ochishga hojat qoldirmasdan ma'lumotlarni yig'ish terminallari, maxsus (mobil) dasturlar, lazerli skanyerlarni o'z ichiga olgan raqamli identifikatsiya vositalarini bevosita vizual ko'rish va to'g'ri o'qish imkoniyatini ta'minlashi kerak;

raqamli identifikatsiya qilish vositasi dori vositasi yoki tibbiy buyumning butun yaroqlilik muddati davomida raqamli identifikatsiyalash vositasini iste'mol o'ramlaridan ajratib olishga imkon bermaydigan usulda yelimlanadi;

raqamli identifikatsiya vositalari shaffof plyonkada yoki boshqa har qanday tashqi o'rash materialida bosilmasligi va boshqa ma'lumotlar bilan qoplanmasligi kerak;

raqamli identifikatsiya qilish vositasi iste'mol o'ramlariga, ma'lumotlarning yaxlitligi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq buzilmaydigan qilib joylashtirilishi kerak.

27. Raqamli identifikatsiyalash vositalarini yelimlash usulini tanlashda o'ramlash materiali va ushbu maqsadlar uchun ishlatiladigan markirovkalash uskunalari borasida cheklovlar yo'q.

7-bob. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni raqamli markirovkalash uchun markirovka kodlarini taqdim etish

28. Raqamli identifikatsiya qilish orqali mahsulotlarni markirovkalash maqsadida mahsulot aylanmasining ishtirokchisi operatorga markirovkalash kodlarini olish uchun ariza yuboradi. Ushbu arizalar buyurtmalarni boshqarish stansiyasidan foydalangan holda mahsulot aylanmasi ishtirokchisi tomonidan elektron shaklda yuboriladi.

29. Belgilash kodlarini olish uchun ariza quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: mahsulot kodi tayinlangan dori yoki tibbiy asbob mahsulot katalogiga kiritilganida; talab qilingan markalash kodlari soni.

30. Agar arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar ushbu Vaqtinchalik nizom bilan belgilangan talablarga javob bersa, operator ko'rsatilgan arizani ro'yxatdan o'tgan vaqtdan boshlab 4 soatdan kechiktirmay:

kerakli miqdordagi markalash kodlarini seriyalashtiradi;

buyurtmalarni boshqarish stansiyasi orqali tajriba loyihasi ishtirokchisiga markirovkalash kodlarini taqdim etadi;

chiqarilgan belgi kodlari to'g'risidagi ma'lumotlarni IV ro'yxatiga kiritadi.

31. Tajriba loyihasi ishtirokchisi — dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi markirovka kodlarini olgandan so'ng:

a) markirovkalash kodlarini raqamli identifikatsiya vositalariga aylantirish va ular iste'molchilarning o'rqlashiga tatbiq etilishini ta'minlaydi;

b) buyurtmalarni boshqarish stansiyasi orqali markirovkalash kodlarini qo'llash to'g'risidagi ma'lumotlarni MMK MATga yuboradi (ko'rsatilgan ma'lumotlar elektron shaklda yuboriladi):

mahsulotni markirovkalash sanasi va vaqti;

raqamli identifikatsiya qo'llaniladigan vositalar ro'yxati.

32. Operator tajriba loyihasi ishtirokchisi — dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchidan raqamli identifikatsiyalash vositalari yelimplanishi to'g'risida ma'lumotlarni olganidan so'ng, real vaqt rejimida tegishli markirovka kodlarining holatlari IV reyestrda aks ettirilishini hamda ushbu ma'lumotlar tajriba loyihasi ishtirokchilariga taqdim etilishini ta'minlaydi.

8-bob. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni agregirlash, tajriba loyihasi doirasida ular aylanmasini kuzatish

33. Dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasining ishtirokchisi dori vositalari va tibbiy buyumlarni transport o'ramiga agregirlash jarayonini, import qilingan taqdirda — agregirlangan bojxona kodini yaratish jarayonini amalga oshiradi.

MMK MATga transport o'rami yoki agregirlangan bojxona kodi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish MMK MAT ma'lumotlariga ko'ra bunday transport o'rami yoki agregirlangan bojxona kodida mavjud bo'lgan agregirlangan iste'mol va transport o'ramlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatishga teng hisoblanadi.

MMK MATda transport o'rami yoki agregatsiya bojxona kodi haqidagi ma'lumotlarni taqdim yetish MMK MATga ko'ra, bunday transport o'rami yoki agregatsiya bojxona kodida joylashgan iste'mol va transport o'rami haqidagi ma'lumotlarni uzatishga teng deb hisoblanadi.

34. Agregirlash tartib-taomilini amalga oshirish uchun mahsulot aylanmasining ishtirokchisi birlashma to'g'risidagi ma'lumotlarni MMK MATga elektron shaklda kiritadi:

a) iste'mol paketlarini transport o'ramlariga yig'ish operatsiyasini bajarish natijasi:

yig'ish tartibini amalga oshirgan mahsulot aylanmasi ishtirokchisining soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

birlashtirilgan iste'mol paketlari soni;

to'plangan iste'mol paketlari uchun identifikatsiya kodlari;

hosil qilingan transport paketining identifikatsiya kodi;

b) transport o'ramlarini keyingi darajadagi transport o'ramlariga agregirlash jarayonini bajarish natijasi:

yig'ish tartibini amalga oshirgan mahsulot aylanmasi ishtirokchisining soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

yig'ilgan transport paketlari soni;

yig'ilgan transport paketlari uchun identifikatsiya kodlari;

hosil qilingan transport paketining identifikatsiya kodi;

v) yig'ish bo'xona kodini shakllantirish operatsiyasining natijasi:

yig'ish tartibini amalga oshirgan mahsulot aylanmasi ishtirokchisining soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

iste'molchilar va transport paketlari uchun identifikatsiya kodlari.

35. Transport o'ramining identifikatsiyalash kodi bir o'lchamli shtrix kod ko'rinishida Davlatlararo GOST ISO 15394-2013 "O'ram. Yuklab jo'natish, transportda tashish va qabul qilish uchun yorliqlarda shtrix kodning chiziqli belgilari va ikki o'lchamli belgilar. Umumiy talablar" standartiga muvofiq taqdim etiladi (ISO 15394:2009 "Packaging — Bar code and two-dimensional symbols for shipping, transport and receiving labels").

36. Operatsiyalarni amalga oshiradigan mahsulot aylanmasining ishtirokchilari transport vositasi ichida mahsulotlarni olib qo'yish va (yoki) o'tkazish to'g'risida MMK MATga quyidagi ma'lumotlar elektron shaklda yuboradi:

olib chiqish, topshirish operatsiyasini amalga oshirgan mahsulot aylanmasi ishtirokchisining soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

o'zgartiriladigan iste'molchilar yoki transport paketlari uchun identifikatsiya kodlari ro'yxati;

transformatsiya operatsiyalari turi (o'tkazish, olib qo'yish).

37. Iste'mol mahsulotlarini boshqa transport paketiga o'tkazishda o'tkazilayotgan mahsulotlarning tegishli identifikatsiya kodlari ro'yxati, shuningdek, ushbu transport o'tkazilgan transport paketining identifikatsiya kodi ko'rsatiladi.

38. Operator real vaqt rejimida mahsulotlarni yig'ish, olib qo'yish va (yoki) o'tkazish to'g'risida ma'lumot olganidan so'ng ularning IV reyestrda aks ettirilishini ta'minlaydi.

39. Tajriba loyihasida ishtirok etadigan dori vositalari va tibbiy buyumlarning muomalaga kiritilishi va aylanishi monitoringi operator tomonidan MMK MAT orqali amalga oshiriladi.

40. Dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi ishtirokchilari o'rtasida dori vositalari va tibbiy buyumlarni o'tkazish (qabul qilish) paytida dori vositalari va tibbiy buyumlar aylanmasining kuzatilishi:

sotishni (jo'natishni) amalga oshiradigan mahsulot aylanmasining ishtirokchisi sotilgan (jo'natilgan) transport vositalarining dori vositalari va tibbiy buyumlarni identifikatsiyalash vositalarini tekshiradi va tan oladi va mahsulotlarni sotish to'g'risida elektron hisob-faktura (EHF) shaklida xabarnoma ishlab chiqaradi mahsulotlar jo'natilgan (topshirilgan) kundan boshlab 3 kundan ortiq bo'lmagan muddat ichida elektron raqamli imzo bilan imzolaydi;

mahsulotni sotib oluvchi (qabul qiluvchi) mahsulot aylanmasi ishtirokchisi mahsulot to'liq qabul qilingan taqdirda, mahsulotni realizatsiya qilish to'g'risidagi xabarnomani o'zining elektron raqamli imzosi bilan 3 ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda, elektron hisob-faktura shaklida 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatda, ushbu mahsulotni qabul qilgan kundan boshlab, jumladan, uchinchi shaxslarga topshirgan kundan kech bo'lmagan muddatda imzolaydi;

elektron hisob-fakturalarning rouming operatori real vaqt rejimida MMK MATga mahsulotlarning sotilishi to'g'risidagi barcha xabarnomalarni (elektron hisob-kitob shaklida) yuboradi;

mahsulot aylanmasi ishtirokchilari tomonidan imzolangan mahsulotlarni realizatsiya qilish to'g'risidagi xabarnoma (elektron hisob-faktura shaklida) olinganda, operator real vaqt rejimida MMK MATda mahsulot aylanmasining bitta ishtirokchisi tomonidan mahsulotlarni boshqa ishtirokchiga topshirish faktini aks ettiradi.

9-bob. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni muomalaga kiritish, ularni muomaladan chiqarish va jarayonni nazorat qilish

41. O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni muomalaga chiqarish quyidagicha amalga oshiriladi:

a) ishlab chiqaruvchi mahsulotlarni sotish to‘g‘risida elektron hisob-faktura (EHF) shaklida xabarnomani ishlab chiqadi, mahsulotlar jo‘natilgan (topshirilgan) kundan boshlab 3 kundan ortiq bo‘lmagan muddat ichida elektron raqamli imzo bilan imzolaydi;

b) mahsulotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlab chiqaruvchidan sotib oladigan (qabul qiladigan) mahsulot aylanmasi ishtirokchisi o‘z elektron raqamli imzosi bilan mahsulotlarni sotish to‘g‘risidagi xabarnomani imzolaydi;

v) elektron hisob-fakturalarning rouming operatori real vaqt rejimida MMK MATga mahsulotlarni sotish to‘g‘risidagi barcha xabarnomalarni (elektron hisob-faktura shaklida) yuboradi;

31. Tajriba loyihasining ishtirokchisi — mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi mahsulotni guruh va (yoki) transport qadoqlariga agregirlashtiradi, shundan so'ng MMK MATga quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan agregirlash to'g'risidagi hisobotni yuboradi:

yaratilgan guruh yoki transport qadog'i identifikatsiya kodi;

iste'mol, guruh va (yoki) transport qadoqlarining identifikatsiya kodlari.

Agregirlash istalgan darajada kiritish imkoniyatini nazarda tutadi:

birinchi darajali agregirlash — iste'mol qadoqlarini birlashtirish, masalan, mahsulotlarni guruh qadog'iga (blok);

ikkinchi darajali agregirlash — iste'mol yoki guruh qadoqlarini transport qadog'iga birlashtirish, masalan, posilkada yoki qutida;

uchinchi va undan keyingi darajali agregirlash — transport qadoqlarini yuqori darajadagi boshqa transport qadog'iga birlashtirish, masalan, brusok yoki konteynerga;

32. Operator ma'lumot olganidan so'ng ularni IV reyestrda aks ettirilishini ta'minlaydi.

Mahsulot aylanmasi ishtirokchisi MMK MATga guruhli qadoqlash yoki transport qadoqlash to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi MMK MATga iste'mol qadoqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berishga teng hisoblanadi, qaysi MMK MAT ma'lumotlariga ko'ra guruh yoki transport qadoqlarida mavjud.

33. Mahsulotlarning aylanmaga chiqarilishi va harakatlanishini nazorat qilish maqsadida:

a) mahsulotni tajriba loyihasi ishtirokchilari — mahsulot aylanmasi subyektlari o'rtasida o'tkazishda (qabul qilishda) dastlabki hujjat mazmuni asosida egalik huquqi yoki realizatsiya qilish uchun mahsulotlarning o'tkazilishini tasdiqlash, bitim qatnashchilari:

realizatsiya qilinayotgan mahsulotlarning markirovkalash kodlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan EHF shaklida xabarnoma yaratish;

ko'rsatilgan xabarnomani har ikki tomonning vakolatli vakillari tomonidan ERI bilan imzolash;

rouming operatori operatorga EHF yuboradi.

Tajriba loyihasining bir ishtirokchisidan — mahsulot aylanmasi subyektidan boshqasiga, lekin ushbu mahsulotga egalik huquqi oluvchidan uchinchi shaxslarga o'tgan paytdan kechiktirmasdan xabarnomada aks etgan, topshirish (qabul qilish) to'g'risida xabarnoma mahsulotga

egalik huquqi berilgan paytdan boshlab 72 (yetmish ikki) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda (bayram va dam olish kunlaridan tashqari) shakllantiriladi.

b) o'tkazish (qabul qilish) to'g'risida xabarnoma olganda:

Operator IV reyestrda xabarnomada keltirilgan barcha ma'lumotlarni ko'rsatib, tajriba loyihasining bir ishtirokchisidan — boshqasiga mahsulot aylanmasiga oid mahsulotlar to'g'risida egalik huquqini o'tkazish faktini aks ettiradi.

9-bob. Mahsulotni aylanmaga kiritish, chiqarish va monitoring olib borish

34. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan mahsulotlarni muomalaga kiritish quyidagicha amalga oshiriladi:

a) tajriba loyihasi ishtirokchisi — mahsulotni import qiluvchi:

olib kirilayotgan mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarish (import) uchun bojxona rejimiga joylashtiradi;

erkin muomalaga chiqarish yoki qayta import qilish maqsadida yuk bojxona deklaratsiyasi ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab besh kundan kechiktirmay MMK MATga quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan holda olib kirish (import) to'g'risida elektron xabarnoma yuboradi:

bojxona organi tomonidan erkin muomalaga (import) chiqarish uchun qabul qilingan yuk bojxona deklaratsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar;

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilgan identifikatsiyalash qadoqlari kodlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

b) operator ushbu bandning **“a” kichik bandida** nazarda tutilgan ma'lumotlarni olganidan so'ng IV reyestrda ushbu mahsulot aylanmaga chiqarilganligini aks ettiradi.

35. Operator tajriba loyihasi ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan quyidagi ma'lumotlar asosida mahsulotlarning muomaladan chiqarilishini nazorat qiladi:

chakana savdoni amalga oshirishda tajriba loyihasi ishtirokchisi — chakana savdo tashkiloti, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan nazorat-kassa texnikasi bilan bog'liq bo'lgan texnik vositalar orqali sotiladigan mahsulotlarni qadoqlash uchun yelimgan raqamli identifikatsiya vositasini skanerdan o'tkazadi va aniqlaydi.

mahsulot kodi va identifikatsiya kodi to'g'risidagi ma'lumotlar nazorat-kassa texnikasi tomonidan yaratiladigan **“kassa cheki”** fiskal hujjatiga kiritiladi;

fiskal ma'lumotlar operatori real vaqt rejimida MMK MATga mahsulotlarning chakana savdosi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron fiskal hujjatlar (kassa cheklari) to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatadi;

operator IV reyestrda fiskal ma'lumotlar operatoridan olingan ma'lumotlarga muvofiq raqamli identifikatsiya qilish vositasi bilan belgilangan mahsulotlar aylanmadan chiqqanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettiradi.

36. Mahsulotlar chakana savdodan (hisobdan chiqarish) boshqa sabablarga ko'ra aylanmadan chiqarilgandan so'ng ushbu mahsulotlarni hisobdan chiqaradigan mahsulot aylanmasi subyekti bo'lgan tajriba loyihasi ishtirokchisi MMK MATga quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan mahsulotni chiqarish to'g'risida xabarnoma yuboradi. :

aylanmadan chiqarilayotgan mahsulotlarning mahsulot kodlari va identifikatsiya kodlari; mahsulotlarni aylanmadan chiqarish uchun rasmiylashtirilgan hujjatning nomi, sanasi va raqami;

mahsulotlarni aylanmadan chiqarish amalga oshirilgan joy manzili;

mahsulotlarning muomaladan chiqarilishi sababi.

37. Aylanmaga chiqarilgan mahsulotlar aylanmasi monitoringi iste'molchilar tomonidan operator tomonidan taqdim etilgan bepul mobil ilova orqali amalga oshiriladi.

38. Operator iste'molchiga mahsulot ishlab chiqarilgan joy, mahsulotning qadoqlangan joyi va uning holati to'g'risida ma'lumot berilishini ta'minlaydi.

Agar iste'molchi operatoridan olingan ma'lumotlar va mahsulotlarning haqiqiy ma'lumotlari o'rtasida tafovutni aniqlagan bo'lsa, u **“Asl belgisi”** va **“Soliq”** mobil dasturlari orqali MMK MATga xabarnoma yuboradi.

MMK MAT ushbu xabarnomani qabul qilib, qayd etilgan holatlar yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi ta'minlash uchun rasmiy ma'lumotlarni belgilangan tartibda aloqa kanallari orqali Davlat soliq qo'mitasiga yuboradi.

10-bob. Tajriba loyihasi ishtirokchilarining ma'lumot almashinuvini ta'minlash

39. Tajriba loyihasini amalga oshirish va axborot almashinuvini ta'minlash maqsadida operator quyidagi funksiyalarni bajaradi:

ishtirokchilar reyestrini yuritadi;

mahsulotlar katalogini yuritadi;

IV reyestrini yuritadi;

tajriba loyihasi ishtirokchilariga ushbu ishtirokchilar vakolatiga kiruvchi MMK MAT registrilarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi;

mahsulot iste'molchilariga mahsulotni iste'mol va (yoki) guruhli qadoqlashning raqamli identifikatsiyalash vositalari va ularning ishlab chiqarish va aylanma jarayonidagi holati to'g'risida ma'lumotni beradi.

40. Tajriba loyihasi ishtirokchilarining operator bilan o'zaro aloqasi elektron raqamli imzo bilan imzolangan elektron hujjatlarni almashish orqali amalga oshiriladi.

41. Elektron hujjatlar almashinuvi tajriba loyihasi ishtirokchisiga taqdim etilgan MMK MATning "Shaxsiy kabinet" maxsus ma'lumot xizmatiga murojaat qilish orqali amalga oshiriladi.

42. Elektron hujjatlarga kiritilgan ma'lumotlarning, shu jumladan, tajriba loyihasi ishtirokchilari — mahsulot aylanmasi subyektlari tomonidan Shaxsiy kabinetda yaratilgan ma'lumotlarning muvofiqligi avtomatik ravishda MMK MAT vositalari yordamida tekshiriladi.

43. Agar tajriba loyihasi ishtirokchilari tomonidan MMK MATga noto'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lgan elektron hujjat taqdim etilgan taqdirda operator aniqlangan nomuvofiqliklarni ko'rsatgan holda tajriba loyihasi ishtirokchisiga hamda belgilangan tartibda aloqa kanallari orqali Qo'mitaga xabarnoma yuboradi.

44. Agar tajriba loyihasi ishtirokchilari tomonidan to'g'ri ma'lumotlar taqdim qilingan bo'lsa, tajriba loyihasi ishtirokchisiga — mahsulot aylanmasi subyektiga ma'lumotlar MMK MAT ga kiritilganligi to'g'risida xabarnoma yuboriladi.

45. Agar ushbu Vaqtinchalik nizomda xabar berishning boshqa muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu bobda ko'rsatilgan xabarnomalar operator tomonidan onlayn ravishda tajriba loyiha ishtirokchisiga — mahsulot aylanmasi subyektiga yuboriladi.

Suv va salqin ichimliklarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo'yicha tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomga

1-ILOVA

20__y. "____"

**"Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy
axborot tizimi operatori "CRPT TURON"
mas'uliyati cheklangan jamiyatga**

**Markirovkalash axborot tizimida ro'yxatdan o'tish bo'yicha
ARIZA**

1. Ariza beruvchi

_____ (yuridik shaxsning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli)

2. Ariza beruvchi joylashgan joyi (pochta manzili): _____

_____ (joylashgan joyi (pochta manzili), telefon raqami, faks va boshqalar)

3. Ariza beruvchining bank rekvizitlari _____

“Asl belgisi” mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimida ro‘yxatdan o‘tkazib berishingizni so‘rayman:

Ro‘yxatdan o‘tish uchun tegishli ma’lumotlar:

Tashkilotning elektron pochta: _____

Tashkilotning telefon raqami: _____

Tashkilot rahbarining lavozimi

(imzo)

(rahbarning F.I.O.)

Suv va salqin ichimliklarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo‘yicha tajriba loyahasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik **nizomga**
2-ILOVA

Tajriba loyihasi doirasida raqamli markirovkalanidigan suv va salqin ichimliklar

RO‘YXATI

T/r	Mahsulot nomi	MST kodi	TIF TN kodi
1.	Alkogolsiz ichimliklar	10.32.11.0; 10.32.12.0; 10.32.13.0; 10.32.14.0; 10.32.15.9; 10.32.16.9; 10.32.17.0; 10.32.19.1; 10.32.19.2; 10.32.19.4; 10.32.19.6; 10.32.19.7; 10.32.19.9.	2202 2009
2.	Idishlarga qadoqlangan ichimlik suv	11.07.11.1; 11.07.11.2; 11.07.11.9; 11.07.19.1; 11.07.19.2; 11.07.19.3; 11.07.19.9	2201

Suv va salqin ichimliklarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo‘yicha tajriba loyahasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik **nizomga**
3-ILOVA

Suv va salqin ichimliklarni raqamli markirovkalash va kuzatish

SXEMASI

Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich. Subyektni ro‘yxatdan o‘tkazish		
Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Zarur ma’lumotlar ko‘rsatilgan arizani operatorga aloqa kanallari orqali yuboradi yoki uni “Asl belgisi” mahsulotlarni raqamli markirovkalash va kuzatilishi bo‘yicha milliy axborot tizimining veb-saytida (keyingi o‘rinlardi MMK MAT deb ataladi) shakllantiradi.	Real vaqt rejimida

Operator	Agar ariza Vaqtinchalik nizomda belgilangan talablarga muvofiq bo'lsa: subyektni ishtirokchilar reyestriga kiritadi; ishtirokchi uchun shaxsiy kabinet ochadi; subyektga ishtirokchilar ro'yxatiga kiritilgani va shaxsiy kabinet ochilgani to'g'risida xabar beradi. Xabarnomada, shuningdek, ishtirokchilar ro'yxatidagi tajriba loyihasi ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarga berilgan ro'yxatdan o'tish raqamlari ko'rsatiladi.	Ariza olingan vaqtdan boshlab 2 (ikki) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda
Operator	Vaqtinchalik nizom talablariga javob bermaydigan ma'lumot yuborilganda va/yoki zarur ma'lumotlar taqdim etilmagan taqdirda, subyektni ro'yxatdan o'tkazishni rad etadi.	Ariza olingan vaqtdan boshlab 2 (ikki) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda
2-bosqich. Suv va salqin ichimliklarni qayd qilish		
Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Zarur ma'lumotlar ko'rsatilgan holda suv va salqin ichimliklarni qayd etish bo'yicha arizani operatorga aloqa kanallari orqali yuboradi yoki uni MMK MAT veb-saytida shakllantiradi.	Real vaqt rejimida
Operator	Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq bo'lgan taqdirda: arizada keltirilgan ma'lumotlarni mahsulot ro'yxatiga kiritadi; tajriba loyihasi ishtirokchisini suv va salqin ichimliklar ro'yxatiga kiritilganligi to'g'risida xabardor qiladi.	Real vaqt rejimida
3-bosqich. Markirovkalash uchun kodlarni taqdim etish		
Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan suv va salqin ichimliklarni raqamli markirovkalash uchun kodlarni olishga operatorga aloqa kanallari orqali buyurtmanoma yuboradi.	Real vaqt rejimida
Operator	Agar buyurtmanomada ko'rsatilgan ma'lumotlar Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq bo'lsa: kerakli miqdordagi markirovkalash kodlarini seriyalashtiradi; tajriba loyihasi ishtirokchisi — ishlab chiqaruvchi yoki suv va salqin ichimliklarni import qiluvchiga ushbu kodlarning ro'yxatini taqdim etadi; taqdim etilgan kodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni IV ro'yxatiga kiritadi.	Real vaqt rejimida
Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Operatorga ro'yxatdagi kodlar olinganligi to'g'risidagi tasdiqni yuboradi.	Markirovkalash kodlari ro'yxati olingan vaqtdan boshlab real vaqt rejimida
	Markirovkalash kodlarini identifikatsiya vositasiga o'zgartiradi.	
	Identifikatsiyalash vositasi suv va salqin ichimliklarda qo'llanilishini ta'minlaydi.	
	MMK MATga markirovkalash kodlaridan foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yuboradi (mahsulot kodi, identifikatsiya kodi, markirovkalash sanasi va vaqti, qo'llanilgan identifikatsiya vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar).	Suv va salqin ichimliklarning qutilarida identifikatsiyalash vositalari qo'llanilgandan so'ng

4-bosqich. Suv va salqin ichimliklarni ishlab chiqarish va aylanishi monitoringini yuritish		
Tajriba loyihasi ishtirokchisi (ishlab chiqaruvchi)	Suv va salqin ichimliklar agregatsiyasini amalga oshiradi.	Real vaqt rejimida
	MMK MAT orqali avtomatik rejimda operatorga mahsulot kodlari hamda yangi guruh va transport paketlarini identifikatsiyalash, shuningdek, mahsulot va qadoqlash kodlari ro'yxati, shu jumladan, avvalgi darajadagi qadoqlar (masalan, paletlarni tuzishda, uning tarkibiga kiruvchi qutilar ro'yxati ko'rsatiladi) to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha xabar beradi.	Real vaqt rejimida
Tajriba loyihasi ishtirokchisi (ishlab chiqaruvchi)	<p>Mulkka egalik huquqi o'tkazilganligini yoki mahsulotlarni sotish uchun berilganligini tasdiqlovchi birlamchi hujjat asosida suv va salqin ichimliklar muomalasi subyektlari — tajriba loyihasi ishtirokchilari o'rtasida suv va salqin ichimliklarni topshirish (qabul qilish) vaqtida bitim taraflari:</p> <p>suv va salqin ichimliklarni topshirish (qabul qilish) to'g'risida mahsulot yo'llanma varaqasi shaklida bildirishnoma tuzadi;</p> <p>tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan ko'rsatilgan bildirishnomani imzolaydi;</p> <p>topshirish (qabul qilish) to'g'risida bildirishnoma va birlamchi hujjatning elektron nusxasini MMK MATga yuboradi, shuningdek, ma'lumotni elektron hisob-varaq faktura ma'lumotlari bilan integratsiyalashtiradi.</p>	Suv va salqin ichimliklarga egalik huquqi o'tgandan so'ng 72 (yetmish ikki) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda
Tajriba loyihasi ishtirokchisi (import qiluvchi)	Import qilinayotgan mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtiradi.	Real vaqt rejimida
	<p>Erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgandan keyin operatorga mahsulotlar deklaratsiyasida ko'rsatilgan mahsulotlarni chiqarish to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:</p> <p>bojxona organi kodi;</p> <p>mahsulot deklaratsiyasini ro'yxatdan o'tkazish sanasi;</p> <p>mahsulot deklaratsiyasini ro'yxatdan o'tkazish raqami;</p> <p>TIF TN kodlari;</p> <p>transport qadoqlarining markirovkalash kodi va mahsulot nomi;</p> <p>mahsulotning kelib chiqish mamlakati kodi.</p>	Real vaqt rejimida
Operator	ma'lumotlarni olgandan keyin ularni MMK MAT reyestrda aks etilishni ta'minlaydi.	Real vaqt rejimida
5-bosqich. Suv va salqin ichimliklarni muomaladan chiqarish		

Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Ulgurji tashkilot suv va salqin ichimliklarni nazorat-kassa texnikasi mavjud bo'lmagan chakana tashkilotlarga sotayotgan hollarda tajriba loyihasining ishtirokchisi — ulgurji savdo tashkiloti sotiladigan suv va salqin ichimliklar qadoqlarida qo'llanilgan identifikatsiyalash vositasini nazorat-kassa texnikalari bilan birlashtirilgan texnik vositalar yordamida skanerlaydi va taniydi.	Real vaqt rejimida
Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Mahsulot kodi va identifikatsiya kodi to'g'risidagi ma'lumotlar nazorat-kassa texnikasi orqali shakllantirilgan "kassa cheki" fiskal hujjatga kiritiladi.	Real vaqt rejimida
Fiskal ma'lumotlar operatori	Nazorat-kassa chekidagi sotilgan har bir birlik bo'yicha nazorat-kassa texnikasining ro'yxatga olingan raqami, sotilgan sana, sotish narxi, mahsulot kodi va tarkibidagi identifikatsiya kodi to'g'risidagi ma'lumotlarni MMK MATga uzatadi. Nazorat-kassa texnikasi ishlamay qolishi hollari bundan mustasno.	Suv va salqin ichimliklar sotilgan vaqtdan boshlab bir sutkadan kech qolmagan muddatda
Operator	Fiskal ma'lumotlar operatoridan olingan ma'lumotlarga muvofiq identifikatsiyalash vositasi bilan raqamli markirovkalangan suv va salqin ichimliklarni muomaladan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlarni IV ro'yxatida aks ettiradi.	Real vaqt rejimida

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 322-son qaroriga
5-ILOVA

Maishiy texnikalarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo'yicha tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to'g'risida

VAQTINCHALIK NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Vaqtinchalik nizom O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lgan maishiy texnika mahsulotlarini (keyingi o'rinlarda — mahsulotlar) raqamli markirovkalash va keyinchalik kuzatib borish vositalari yordamida tajriba loyihasini (keyingi o'rinlarda — tajriba loyiha) amalga oshirish tartibini, maishiy texnikani markirovkalash vositalarining xususiyatlarini, axborot tizimining davlat axborot tizimlari va tajriba ishtirokchilarining axborot tizimlari bilan o'zaro aloqasi tartibini, shuningdek, markirovka kodlarini taqdim etish va markirovkalashni amalga oshirishda harakatlar ketma-ketligini hamda tajriba loyihasini ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2. Tajriba loyihasining maqsadlari:

a) markirovkalash va kuzatib borish vositalari yordamida markirovkalash mexanizmining samaradorligi, natijadorligi, to'liqligi va yetarli darajada ekanligini sinash orqali quyidagilarni amalga oshirish:

mahsulotlarning haqiqiylikini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi hududiga mahsulotlarning noqonuniy olib kirilishiga, ishlab chiqarilishiga va aylanmasiga qarshi kurashish;

mahsulotlarni olib kirish, ishlab chiqarish va aylanmasida qonunchilikda nazarda tutilmagan sxemalardan foydalanishning oldini olish maqsadida mahsulot aylanmasi ishtirokchilarining o'zaro aloqalarini ta'minlash;

b) mahsulot aylanmasini hisobga olish tartiblarini standartlash va unifikatsiya qilish.

3. Tajriba loyihasi jarayonida ushbu Vaqtinchalik nizomga belgilangan tartibda qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

4. Ushbu Vaqtinchalik nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

maishiy texnika — ishlab chiqarish usuli yoki tayyorlangan materiallardan qat’i nazar, ushbu Vaqtinchalik nizomga 2-ilovaga muvofiq tajriba loyihasi doirasida raqamli markirovkalanadigan mahsulotlar;

agregatsiyalash — maishiy texnikani birinchi darajali transport qadog‘iga, shuningdek, birinchi darajadagi transport qadoqlarini keyingi darajadagi transport qadog‘iga birlashtirish jarayoni, transport vositalarining qadog‘ini identifikatsiya kodini o‘z ichiga olgan transport qadog‘ida har bir o‘rnatilgan maishiy texnika mahsuloti, transport vositasi uchun identifikatsiya kodlarining o‘zaro bog‘liqligi;

agregatsiyalangan bojxona kodi — operator tomonidan shakllantiriladigan, mahsulotlar aylanmasi ishtirokchilari tomonidan ichki iste‘mol uchun chiqarilishi yoki qayta olib kirish, eksport qilish, vaqtincha eksport qilish va qayta eksport qilish uchun mahsulotlarni bojxona deklaratsiyasidan o‘tkazishda qo‘llaniluvchi raqamli identifikatsiyalash vositalari yordamida mazkur Vaqtinchalik nizom bilan muvofiqlikda mahsulotlarni identifikatsiyalash maqsadlari uchun agregatsiyalash jarayonida mahsulotlarni birlashtiruvchi, o‘zi bilan har bir maishiy texnikaning identifikatsiyalash kodlarini, jumladan, qadoqning identifikatsiyalash kodlari birlashtirilishini taqdim etuvchi mahsulotlarning alohida majmuasi uchun belgilarning noyob ketma-ketligi;

maishiy texnikani muomalaga kiritish — maishiy texnika ishlab chiqarishda:

O‘zbekiston Respublikasi hududida (shu jumladan, shartnoma asosida ishlab chiqarishda) — ishlab chiqaruvchi tomonidan maishiy texnikaning chakana realizatsiyasi (sotish) yoki maishiy texnikani ishlab chiqaruvchidan yangi shaxsga yoki boshqa shaxsga ularni begonalashtirish maqsadida yoki keyinchalik sotish uchun berish, ular esa ushbu mahsulotlarni tarqatish va (yoki) foydalanish uchun taklif qiladi;

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida — yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy shaxs tomonidan maishiy texnikaning O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilishi;

maishiy texnika, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilishi bilan bog‘liq holda, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida.

Ushbu metodik tavsiyalarni amalga oshirish uchun maishiy texnikalarni yetkazib berish, ularning sotuv joyida namunalarini namoyish etish joyida, ularni sotuv joyida joylashtirish, namunalarini namoyish etish yoki ma‘lumot berish uchun shuningdek, keyinchalik o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ilgari sotib olingan mahsulotlar aylanmaga kiritilgan hisoblanadi;

maishiy texnikani muomaladan chiqarish — markirovkalangan maishiy texnikani jismoniy shaxsga shaxsiy iste‘mol uchun sotish; maishiy texnika buyumlariga egalik huquqini berish, beg‘araz ravishda topshirishni, huquqlarni berish, tovon puli yoki novatsiyani nazarda tutadigan shartnomalar asosida markirovkalangan maishiy texnika vositalarini shaxsiy iste‘mol qilish uchun jismoniy shaxslarga berish; maishiy texnikani yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘z ehtiyojlari uchun ishlatish maqsadida ularni keyinchalik sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda sotish, shu jumladan, maishiy texnikani yo‘q qilish, qaytarib bo‘lmaydigan yo‘qotish, o‘zlari uchun foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilish ehtiyojlari, shuningdek, markirovkalangan maishiy texnika vositalarini O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida sotish, maishiy texnikani ularni namunalar bo‘yicha sotish yoki iste‘molchilarga etkazib berish uchun maishiy texnika omboridan jo‘natishda masofadan sotish yo‘li bilan sotish;

axborot tizimi — “Asl belgisi” mahsulotlarini raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo‘yicha milliy axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda — MMK MAT);

maishiy texnika import qiluvchi — O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lgan va ichki iste‘mol yoki reimport uchun bojxona tartib-qoidalari ostida joylashtirilgan mahsulotlarni

qabul qiluvchi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

individual seriya raqami — mahsulot kodi asosida maishiy texnika birligini noyob tarzda aniqlaydigan belgilar ketma-ketligi;

elektron o'zaro ta'sir interfeysi — tajriba loyihasi ishtirokchilari va MMK MATning dasturiy ta'minoti va texnik vositalarining o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan vositalar va qoidalar to'plami;

tuzatuvchi elektron hisob-faktura — maishiy texnika muomalasi ishtirokchilari tomonidan ilgari tuzilgan, xato va (yoki) noaniqliklarni o'z ichiga olgan hujjatning o'rnini bosish uchun tuzilgan, shakli Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan elektron hisob-faktura;

markirovkalangan mahsulotlar katalogi — markirovkalangan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kataloglash va saqlash uchun ishlatiladigan va mahsulot kodining yagona manbai bo'lgan MMK MATning quyi tizimi;

identifikatsiya kodi — ushbu Vaqtinchalik nizomning 7-bobida nazarda tutilgan talablarga muvofiq maishiy texnikani aniqlash maqsadida operator tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning noyob nusxasi bo'lgan belgilar qatori;

transport qadoq identifikatsiya kodi — ushbu Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq shakllangan maishiy texnika transport qadoq nusxasining noyob sonini ifodalovchi belgilar ketma-ketligi;

markirovkalash kodi — operator tomonidan ushbu Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq maishiy texnikani aniqlash maqsadida ishlab chiqarilgan identifikatsiya kodi va tasdiqlash kodidan tashkil topgan noyob belgilar ketma-ketligi;

tekshirish kodi — identifikatsiya kodini o'zgartirish natijasida hosil bo'lgan belgilar ketma-ketligi bo'lib, identifikatsiya kodini tekshirish paytida soxtalashtirilganligini aniqlashga imkon beradi, fiskal modul yoki tekshirish kodini tekshirishning texnik vositalari yordamida operator tomonidan ushbu Vaqtinchalik nizom 7-bobida nazarda tutilgan talablariga muvofiq shakllanganiriladi;

mahsulot kodi — tegishli mahsulot nomenklaturasi bo'yicha mahsulotlar to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni hisobga olish va saqlashni ta'minlaydigan axborot resursida tavsiflanganda mahsulotlar guruhiga berilgan noyob kod;

shartnoma asosida ishlab chiqarish — uchinchi ishlab chiqaruvchining korxonalarida buyurtmachining savdo belgisi ostida buyurtma asosida tayyorlangan maishiy texnika ishlab chiqarish, bu texnologik siklga to'liq mos kelishini va buyurtmachining talablariga muvofiq tayyor maishiy texnika sifatini nazorat qilishni ta'minlaydi.

shaxsiy kabinet — operator rasmiy veb-saytida Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan axborot xizmati, operator tomonidan tajriba loyihasi ishtirokchisiga belgilangan tartibda taqdim etiladi hamda operator va tajriba loyihasi ishtirokchisi tomonidan foydalaniladi;

markirovkalangan maishiy texnika mahsulotlari — mazkur Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq identifikatsiya vositalari bilan markirovkalangan maishiy texnika haqida ishonchli (ularga qo'llaniladigan identifikatsiya qilish vositalari va (yoki) maishiy texnikani identifikatsiyalash vositalarini o'z ichiga olgan moddiy tashuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi) ma'lumotlarning MMK MATda mavjudligi;

maishiy texnikani identifikatsiya vositalari bilan markirovkalash — mazkur Vaqtinchalik nizomga muvofiq maishiy texnika mahsulotida yoki mahsulot yorlig'ida identifikatsiya vositalarini qo'llash;

mahsulotlarni ishlab chiqarish joylari — ishlab chiqaruvchilar maishiy texnika ishlab chiqarishda foydalanadigan ishlab chiqarish binolari, omborxonalar va boshqa binolarni o'z ichiga olgan maishiy texnika ishlab chiqarish joylashgan hudud;

maishiy texnika aylanmasi — O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, maishiy texnikani saqlash, tashish, qabul qilish va topshirish, shu jumladan, ularni O'zbekiston Respublikasi hududida sotib olish va sotish;

MMK MATning operatori (keyingi o‘rinlarda — operator) — O‘zbekiston Respublikasi hududida ro‘yxatdan o‘tgan, axborot monitoringi tizimini yaratish, rivojlantirish, modernizatsiya qilish va ishlashini amalga oshiruvchi, uning uzluksiz ishlashini ta‘minlovchi tegishli axborotlarni qabul qiluvchi, saqluvchi va qayta ishluvchi yuridik shaxs;

maishiy texnikani qayta markirovkalash — ilgari qo‘llanilgan identifikatsiya vositalarining yo‘qolishi yoki buzilishi munosabati bilan ushbu Vaqtinchalik nizomga muvofiq mahsulotlarga yoki maishiy texnika mahsulotlarining yorlig‘iga identifikatsiya vositalarini qayta tatbiq etish;

maishiy texnika buyumlarini ishlab chiqaruvchi — maishiy texnika ishlab chiqaradigan va sotadigan, O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

ma‘lumotlar uzatish protokoli — ma‘lumotlar to‘plamining tuzilishi va ma‘lumotlar uzatish tarmog‘i qurilmalari o‘rtasida ma‘lumotlar to‘plamlarini almashish algoritmi uchun talablarning rasmiylashtirilgan to‘plami;

maishiy texnikani identifikatsiya qilish vositalari — mahsulotga yoki mahsulotga tatbiq etish uchun ushbu Vaqtinchalik nizomning 7-bobida nazarda tutilgan talablarga muvofiq ishlab chiqarilgan shtrix-kod shaklida taqdim etilgan mashinada o‘qiladigan shaklda yorliqda markirovkalash kodi;

maishiy texnikaning transport qadog‘i — maishiy texnikani harakatlanish paytida va mustaqil transport birligini shakllantirishda ularni saqlash va tashish uchun ishlatiladigan maishiy texnikani birlashtirgan qadoq. Transport qadog‘i o‘z ichiga kichikroq transport qadog‘ini (hajmini) olishi mumkin.

mahsulot yorlig‘i — to‘g‘ridan to‘g‘ri mahsulotga biriktirilgan mahsulot haqida ma‘lumotni, shu jumladan, mahsulotni identifikatsiya qilish vositasini qo‘llash uchun mo‘ljallangan axborot tashuvchi;

tuzatish hujjati — ilgari yetkazib berilgan bilan bog‘liq xarajatlarining o‘zgarishi fakti va (yoki) uni qabul qilishda mahsulot miqdori (sifati)dagi tafovutlar faktini hujjatlashtirishga mo‘ljallangan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan formati tasdiqlanadigan hisob-faktura, elektron hujjat.

elektron hisobvaraqlar — faktura (EHF) — O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan shakl bo‘yicha rasmiylashtiriluvchi, elektron hisobvaraqlar-fakturalar aylanmasi tizimi operatorlari orqali chiqariluvchi va olinuvchi mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotilishini va xarid qilinishini tasdiqlovchi elektron hujjat (jumladan, qo‘shimcha hisobvaraqlar-faktura va to‘g‘rilangan hisobvaraqlar-faktura);

nazorat-kassa texnikasi — fiskal xotira bilan jihozlangan nazorat-kassa mashinalari, fiskal xotiradagi ma‘lumotlar yozib olinishi va saqlanishini ta‘minlovchi, fiskal hujjatlarni shakllantiruvchi hamda ularning soliq organlariga fiskal ma‘lumotlar operatori orqali topshirilishini, shuningdek fiskal hujjatlar nazorat-kassa texnikasini qo‘llash to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq qog‘ozda chop etilishini ta‘minlovchi boshqa qurilmalar hamda dasturiy-texnik majmualar;

fiskal ma‘lumotlar operatori — onlayn tartibda fiskal ma‘lumotlarning qabul qilinishi, ularga ishlov berilishi va saqlanishini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi “Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi” davlat unitar korxonasi;

O‘zbekiston Respublikasi mahsulot aylanmasi ishtirokchilari — O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari bo‘lgan tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, maishiy texnikani aylanmaga kiritadigan va (yoki) aylanmadan chiqaradigan yuridik va jismoniy shaxslar;

5. Tajriba loyihasi ishtirokchilari:

tajriba loyihasini o‘tkazish uchun qaror asosida vakolat berilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari;

maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari;

“CRPT TURON” MChJ — MMK MAT operatori;

nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq fiskal ma'lumotlarni qayta ishlashga ruxsat olgan tashkilotlar (keyingi o'rinlarda — fiskal ma'lumotlar operatori, texnik xizmat ko'rsatish markazlari);

elektron hujjat aylanishi operatorlari.

6. Maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari va elektron hujjat aylanishi operatorlari tajriba loyihasida qatnashishi ixtiyoriydir. Uni amalga oshirish davomida tovar aylanmasining yangi ishtirokchilarining tajriba loyihasiga qo'shilish imkoniyatiga yo'l qo'yiladi.

7. Mazkur ko'rsatmalar quyidagilarga taalluqli emas:

a) Vaqtinchalik saqlashda bo'lgan yoki bojxona omborining bojxona tartibida joylashtirilgan maishiy texnika;

b) maishiy texnikalarning xorijiy mahsulotlarini kelib tushish joyidagi bojxona organidan chiqarish joyidagi bojxona organiga tashish uchun bojxona tranzitining bojxona tartibi bo'yicha joylashtiriladigan maishiy texnika mahsulotlari.

v) bojxona tranziti bojxona tartibida joylashtirilgan chet el maishiy texnika mahsulotlarini bojxona hududi orqali tashish (bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish) uchun kelgan joyidagi bojxona organidan ichki bojxona organiga);

g) bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadida bojxona tartiblari ostida joylashtirilgan maishiy texnika;

d) saqlash va tashish paytida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga, shuningdek, standartlashtirish sohasidagi normativ-texnik hujjatlarga muvofiqligini baholash maqsadida sinov uchun mo'ljallangan maishiy texnika namunalari;

e) xalqaro ko'rgazma va yarmarkalar tashkilotchilari va qatnashchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilgan yoki O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va sotish uchun mo'ljallanmagan maishiy texnika;

j) bojsiz savdo (Duty free) do'konlarida sotiladigan (savdo qilinadigan) maishiy texnika;

z) ishlab chiqaruvchi tomonidan saqlanadigan maishiy texnika;

i) olib qo'yilgan, musodara qilingan yoki boshqa yo'l bilan davlat daromadiga aylangan maishiy texnika, bajarilmagan majburiyatlardan olinadigan maishiy texnika, O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi va soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, ularni saqlash, tashish, vakolatli organ tomonidan realizatsiya qilish (sotish) paytida, shuningdek, yo'q qilinishi kerak bo'lgan maishiy texnika, ularni saqlash va tashish paytida;

l) jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga olib kirilgan va ular tomonidan shaxsiy foydalanish uchun sotib olingan maishiy texnika;

m) diplomatik vakolatxonalar, konsullik idoralari, xalqaro, davlatlararo va hukumatlararo tashkilotlar, ularning vakolatxonalari, shuningdek, ular bilan birga bo'lgan davlatlar vakillari tomonidan ularni saqlash, tashish va ulardan foydalanish paytida rasmiy foydalanish uchun mo'ljallangan maishiy texnika;

n) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda amalga oshirilgan tovarlarni saqlash va tashish paytida qaytarib berilishini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda chakana savdo doirasida sotib olingan va xaridorlar tomonidan sotuvchilarga qaytarilgan maishiy texnika.

2-bob. Identifikatsiya vositalari yordamida markirovkalangan maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari to'g'risida

8. Maishiy texnikani ishlab chiqaruvchi ushbu Vaqtinchalik nizomning talablariga muvofiq maishiy texnikani identifikatsiya qilish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan maishiy texnikani markirovkalashi kerak.

Maishiy texnika mahsulotlarini import qiluvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ishlab chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan (import qilingan) maishiy texnika yorliqlarini taqdim etadi.

Ulgruji va chakana savdoni amalga oshiradigan maishiy texnika aylanmasining ishtirokchilari identifikatsiya vositalarini o'qish imkonsiz bo'lganda maishiy texnika qayta markirovkalanishini ta'minlash ilgari maishiy texnika mahsulotlariga joylashtirilgan identifikatsiya vositalarining shikastlanishi yoki yo'qolishi, sotib olish-sotish operatsiyalari doirasida, shu jumladan,

maishiy texnika mahsulotlarini iste'molchi qaytarib berganidan keyin sotishga (sotishda) taqdim etishda.

Vositachi ayrim turdagi yuridik shaxslarning vositachilik shartnomalari doirasida yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxslardan sotish uchun qabul qilingan markirovkasiz maishiy texnika markirovkasini taqdim etadi, ularni realizatsiya qilish (sotish) taklifidan oldin markirovkasiz maishiy texnika markirovkasini ta'minlaydi, shu jumladan, ularni realizatsiya qilish (sotish) joyida namoyish etishdan oldin ularning namunalari namoyish qilish yoki realizatsiya qilish (sotish) joyida ular haqida ma'lumot beradi.

Maishiy texnika identifikatsiya qilish vositalari yo'qotilgan yoki zararlangan, sotib olish va sotish operatsiyalari doirasida yetkaziladigan (realizatsiya qilinadigan), shu jumladan, iste'molchi tomonidan va vositachilik shartnomalari bo'yicha ular qaytarilgandan so'ng realizatsiya qilishga (sotish) taklif etiladigan maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisi ilgari markirovkalangan maishiy texnika markirovkalanishini ta'minlaydi (qayta markirovka).

3-bob. Maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar

9. Maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

a) malakali elektron imzo (keyingi o'rinlarda — ERI);

b) elektron hujjatlarni elektron imzo bilan yaratish va imzolashga, shuningdek, zarur elektron hujjatlarni MMK MAT bilan, shu jumladan, shaxsiy kabinet orqali almashtirishga qodir bo'lgan apparat-dasturiy kompleks.

10. Ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar, ushbu Vaqtinchalik nizomning **9-bandida** ko'rsatilgan talablardan tashqari buyurtmalarni boshqarish serveriga masofadan kirish huquqiga ega bo'lishlari kerak.

11. Ulgurji savdoni amalga oshiradigan maishiy texnika aylanmasining ishtirokchisi ushbu Vaqtinchalik nizomning **9-bandida** ko'rsatilgan talablardan tashqari buyurtmalarni boshqarish serveriga masofadan turib kirish huquqiga ega bo'lishi kerak.

12. Chakana savdo (shu jumladan vositachilik) savdosini amalga oshiradigan maishiy texnika aylanmasining ishtirokchisi ushbu Vaqtinchalik nizomning **9-bandida** ko'rsatilgan talablardan tashqari quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

a) maishiy texnika tovarlarini identifikatsiya qilish vositalarini skanerlash va tanib olish vositalari kassa uskunasi ulangan bo'lishi kerak;

b) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, O'zbekiston Respublikasining nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ruxsat olgan tashkilot bilan tuzilgan, fiskal ma'lumotlarni qayta ishlash (keyingi o'rinlarda — fiskal ma'lumotlar operatori), maishiy texnika muomalasi ishtirokchisi nomidan har bir sotilgan savdo punkti uchun nazorat-kassa mashinalari yordamida markirovkalangan maishiy texnikani muomaladan olib tashlash to'g'risidagi ma'lumotlarni MMK MATga qayta ishlash va uzatish to'g'risidagi shartnoma (nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish holatlarida fiskal hujjatlarni soliq organlariga fiskal ma'lumotlar operatori orqali elektron shaklda topshirishni nazarda tutmagan rejimda markirovkalangan maishiy texnikani muomaladan olib qo'yish to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatish bundan mustasno);

v) operatorning MMK MAT buyurtmalarni boshqarish serveriga masofadan kirish. Maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari uchun MMK MAT operatori infratuzilmasida joylashgan buyurtmalarini boshqarish serveriga masofadan turib kirishni ta'minlash operator tomonidan bepul amalga oshiriladi.

Maishiy texnika aylanmasining ishtirokchisiga buyurtmalarni boshqarish serveriga masofadan turib kirish huquqini beruvchi operator axborot tizimidan ro'yxatdan o'tadi.

4-bob. Maishiy texnika aylanmasidagi ishtirokchilarning MMK MAT bilan ma'lumot almashish tartibi

14. Maishiy texnika muomalasi ishtirokchilari tomonidan MMK MATning operatoriga ma'lumotlarni taqdim etish, ma'lumotlar tizimining operatori tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlar uzatishning standart protokollari va elektron interfeyslari yordamida elektron hujjatlarni

almashtirish (ariza, xabarnoma, kvitansiya, va boshqalar), ularning formatini MMK MATning operatori belgilaydi va Internet jahon axborot tarmog'idagi MMK MATning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

15. Maishiy texnika muomalasi ishtirokchilari tomonidan MMK MATga yuboriladigan elektron hujjatlar maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisining kengaytirilgan elektron imzosi bilan imzolanishi kerak, o'tkazish holatlari bundan mustasno:

a) maishiy texnika muomalasi ishtirokchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasining nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq fiskal hujjatlar tarkibida elektron shaklda o'tkazilgan maishiy texnika chakana savdosi to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari tomonidan elektron shaklda markirovokalash kodlari chiqarilishini ro'yxatga olish moslamalari yordamida uzatiladigan ma'lumotlar.

16. Maishiy texnika tovarlari muomalaga kiritilganda, muomalada bo'lganda va muomaladan chiqarilayotganda MMK MATga ma'lumot taqdim etilishi maishiy texnika aylanmasining ishtirokchisi tomonidan ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Tovar aylanmasi ishtirokchisining transport qadoqlari to'g'risidagi ma'lumotni uzatishi, ushbu transport qadoqlarida mavjud bo'lgan maishiy texnika tovarlari to'g'risidagi ma'lumotlarning monitoring tizimiga muvofiq uzatilishiga tenglashtiriladi.

Tovar ayirboshlash ishtirokchisining yig'ilgan bojxona kodlari to'g'risidagi ma'lumotni etkazib berish, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ishlab chiqarilgan va bojxona hududiga olib kirilgan (import qilingan) hollarda tovarlarni muomalaga kiritishda maishiy texnika to'g'risidagi ma'lumotlarning berilishiga teng hisoblanadi. monitoring tizimiga muvofiq umumlashtirilgan bojxona kodeksida mavjud.

17. Maishiy texnika muomalasi ishtirokchilari tomonidan ushbu Vaqtinchalik nizom talablariga javob beradigan MMK MATga yuborilgan barcha hujjatlar va ma'lumotlar MMK MATda aks ettirilishi kerak.

18. Agar quyidagi sabablardan biri bo'lsa, operator hujjatlarni (arizalarni, bildirishnomalarni) qabul qilishdan yoki maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni MMK MATga kiritishdan bosh tortadi:

a) taqdim etilgan hujjatlar belgilangan formatni buzgan holda tayyorlangan, noto'g'ri ma'lumotlar yoki ushbu Vaqtinchalik nizomning **8, 10 va 11-boblarida** nazarda tutilgan majburiy ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan;

b) hujjat imzolanmagan yoki maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisi nomidan hujjatni imzolash vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan imzolangan;

v) maishiy texnika muomalasi ishtirokchisiga nisbatan yuridik shaxslarning yagona davlat reestrda yuridik shaxs faoliyatini tugatish to'g'risida xabarnoma mavjudligi yoki jismoniy shaxsning yagona davlat reestrda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyatini tugatish to'g'risida xabarnoma mavjudligi.

19. Maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisining elektron hujjatlarni topshirgan yoki ma'lumotlarni MMK MATga kiritgan kundan boshlab 1 kalendar ish kun ichida taqdim etilgan elektron hujjatlari qabul qilinganligi yoki MMK MATga ma'lumotlari kiritilganligi to'g'risida xabarnoma beriladi yoki elektron hujjatlari qabul qilinimaganligi va MMK MATga ma'lumotlari kiritilmaganligi to'g'risida xabarnoma yuboriladi. Yuborilgan xabarnoma quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

a) maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisi hujjatining ro'yxatdan o'tish raqami;

b) xabarnoma raqami;

v) xabarnoma sanasi;

g) maishiy texnika tovarlarining identifikatsiya kodlari (tovarlarning yagona nusxalari uchun identifikatsiya kodlari, transportirovka qadoqlash uchun identifikatsiya kodlari, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida ishlab chiqarilgan va bojxonaga olib kiriladigan (import qilingan) tovarlarni muomalaga kiritishda yig'ilgan bojxona kodlari tizimdagi ma'lumotlar va ularning holati

(maqomining o'zgarishi) (agar maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatda tovar haqida ma'lumot bo'lsa);

d) MMK MATga hujjatlar (ma'lumotlar) kiritilishi yoki ularni kiritishni rad etish sabablari to'g'risida xabarnoma.

20. Ushbu Vaqtinchalik nizamning 19-bandida ko'rsatilgan xabarnomalar (kvitansiyalar) axborot monitoringini yuritish tizimi operatori tomonidan maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisiga elektron interfeyslardan foydalangan holda axborot monitoringi tizimidagi shaxsiy kabinet orqali yoki elektron pochta orqali yuboriladi.

21. Axborot monitoringini yuritish tizimiga elektron hujjatni taqdim etish sanasi — elektron hujjatni qabul qilish to'g'risidagi xabarnomada (kvitansiyada) qayd etilgan sana hisoblanadi.

Maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisining axborot monitoringi tizimiga elektron hujjatni (ma'lumotni) taqdim etish majburiyatini bajarganligi, axborot monitoring tizimiga ma'lumotlarni kiritish to'g'risida xabarnoma (kvitansiya) bilan tasdiqlanadi.

Ushbu xabarnomalar (kvitansiyalar) elektron hujjatlar topshirilgan yoki MMK MATga kiritilgan kundan boshlab bir kun ichida avtomatik ravishda tuziladi va MMK MAT ma'lumotlarni qayd etgandan so'ng maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisiga MMK MAT orqali elektron hujjat ko'rinishida yuboriladi.

23. Maishiy texnika aylanmasining ishtirokchilari ma'lumotlarni MMK MATga mustaqil ravishda va boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarni jalb qilgan holda yuborishadi. Yuridik yoki jismoniy shaxslar jalb qilinganida ular yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tgan, maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari tomonidan vakolat berilgan va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ularning nomidan ish yuritish huquqiga ega bo'lishlari kerak bo'ladi.

24. Agar ushbu vaqtinchalik nizomda boshqa qoidalar belgilanmagan bo'lsa, MMK MATning operatori maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarni MMK MATda qabul qilgan kundan boshlab 1 kundan kechiktirmay joylashtirishni ta'minlaydi va ariza beruvchiga yoki maishiy texnikani o'tkazgan boshqa aylanmaning ishtirokchilariga (agar o'zgarishlar ularga ta'lluqli bo'lsa) MMK MATga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida majburiy xabarnoma (kvitansiya) yuboradi.

25. Maishiy texnika aylanmasi monitoringini ta'minlash maqsadida MMK MATning operatori tizimda quyidagi ma'lumotlarning mavjudligini ta'minlaydi:

a) maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari to'g'risida ma'lumot;

b) markirovka qilinadigan maishiy texnika to'g'risida ma'lumot;

v) mahsulotga yoki mahsulot yorlig'iga qo'llaniladigan identifikatsiya qilish vositalari to'g'risida ma'lumot;

g) maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari tomonidan identifikatsiyalash vositasi bilan markirovka qilinadigan va MMK MAT orqali ma'lumot almashish uchun foydalanadigan buyurtmalarni boshqarish servyerlari to'g'risida ma'lumot;

d) maishiy texnika muomalasi ishtirokchilariga berilgan markirovka kodlari to'g'risida ma'lumot;

e) markirovkalangan maishiy texnika aylanmasi va ularni muomaladan chiqarish to'g'risida ma'lumot.

26. MMK MAT operatori quyidagi reyestrlarni yuritadi:

a) hujjatlar reyestri;

b) maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilari reyestri;

v) maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilarining vakolatli shaxslari reyestri;

g) maishiy texnika reyestri;

d) maishiy texnika identifikatsiyalash vositalarining reyestri;

e) buyurtmalarni boshqarish servyerlarining reyestri;

2) Identifikatsiyalash vositalari zararlangan yoki identifikatsiyalash vositalari bo'lmagan maishiy texnika mahsulotlari qaytarilganda (maishiy texnika mahsulotini identifikatsiyalash imkoniyati mavjud bo'lmasa), maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchisi ushbu Vaqtinchalik nizomning 8-bobida nazarda tutilgan jarayonlarga muvofiq maishiy texnika mahsulotini qayta markirovkalaydi va axborot tizimiga quyidagi ma'lumotlarni uzatadi:

a) maishiy texnika mahsulotlarini qabul qilayotgan maishiy texnika mahsuloti aylanmasi ishtirokchisining STIRi;

b) yangi identifikatsiya kodi.

v) markirovkalangan maishiy texnika mahsulotlari qaytarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar rekvizitlari.

86. Maishiy texnika mahsulotlarini ularni realizatsiya qilish (sotish) bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda sotib olgan va ko'rsatilgan tovarlarni realizatsiya qilish (sotish) to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar, zaruratga ko'ra, maishiy texnika mahsulotlarini identifikatsiyalash vositalari bilan maishiy texnika mahsulotlarini qayta markirovkalashni amalga oshiradi va ushbu tovarlarni realizatsiya qilish (sotish) uchun qo'yishdan, shu jumladan, ularni realizatsiya qilish (sotish) joyiga qo'yishdan, ularning namunalarini namoyish qilishdan yoki ular to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishdan oldin quyidagilar to'g'risida ma'lumotlarni axborot tizimi operatoriga taqdim etadi:

a) maishiy texnika mahsulotlarini qabul qilayotgan maishiy texnika mahsuloti aylanmasi ishtirokchisining STIRi

b) identifikatsiya kodi (agar maishiy texnika mahsulotlarini identifikatsiya qilish vositasi zararlanmagan yoki yo'qolmagan bo'lsa);

v) maishiy texnika mahsulotlari transport o'raining yangi identifikatsiya kodi yoki yangi identifikatsiya kodi (zaruratga ko'ra maishiy texnika mahsulotlarini identifikatsiyalash vositasi yo'qolgan yoki zararlangan bo'lsa).

11-bob. Axborot tizimidagi ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish tartibi

87. Ushbu Vaqtinchalik nizomning 4 — 6, 10 va 11-boblarida nazarda tutilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan taqdirda, maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchisi ular o'zgartirilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida operatorga o'zgartirish kiritilganligi to'g'risida xabarnoma yuboradi:

88. Agar maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchilari tomonidan maishiy texnika mahsulotlari qabul qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga uzatishdan oldin uzatish hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar tuzatishni talab qilsa, unda:

a) maishiy texnika mahsulotlarini jo'natishni (o'tkazishni) amalga oshirgan maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchisi maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish to'g'risidagi (universal tuzatuvchi hujjat yoki tuzatuvchi universal o'tkazish hujjati shaklida) xabarnomani shakllantiradi, ushbu xabarnomani imzolaydi va axborot tizimiga yuboradi;

b) maishiy texnika mahsulotlarini qabul qilgan maishiy texnika mahsulotlari aylanmasining ishtirokchisi maishiy texnika mahsulotlarini topshirish (qabul qilish) haqidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish to'g'risidagi xabarnomani imzolaydi va uni yuboradi, shuningdek, maishiy texnika mahsulotlarini jo'natishni amalga oshirgan maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchisi tomonidan imzolangan maishiy texnika mahsulotlarini topshirish (qabul qilish) to'g'risidagi xabarnomani axborot tizimiga jo'nataadi. Bunda agar tuzatuvchi universal o'tkazish hujjati maishiy texnika mahsulotlarini topshirish (qabul qilish) haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish to'g'risida xabarnoma sifatida ishlatilsa maishiy texnika vositalari aylanmasi ishtirokchisi tomonidan imzolangan maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) to'g'risidagi xabarnomani axborot tizimiga jo'natilmasligi mumkin;

v) maishiy texnika mahsulotlari aylanmasining ikkala ishtirokchisidan olingan ma'lumotlarga aniqlik kiritish to'g'risida xabarnomalar olinganidan so'ng operator maishiy texnika mahsulotlarini identifikatsiyalash vositalari reyestri axborot tizimiga maishiy texnika mahsulotlari maishiy texnika mahsulotlari aylanmasining bir ishtirokchisidan boshqa ishtirokchisiga maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) to'g'risida axborotni aniqlashtirish to'g'risidagi xabarnomada keltirilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holda o'tkazilganligini tasdiqlaydi.

89. Agar maishiy texnika mahsulotlari qabul qilingandan va bu haqda axborot tizimiga ma'lumot taqdim etilgandan so'ng maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchilari tomonidan o'tkazish hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarga o'zgartirish kiritish kerakligi aniqlansa, unda:

a) maishiy texnika mahsulotlarini jo'natishni (o'tkazishni) amalga oshirgan maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchisi maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish to'g'risidagi (universal tuzatuvchi hujjat yoki tuzatuvchi universal o'tkazish hujjati shaklida) xabarnomani shakllantiradi, uni imzolaydi va axborot tizimiga yuboradi;

b) maishiy texnika mahsulotlarini qabul qilishni amalga oshirgan maishiy texnika mahsulotlari aylanmasi ishtirokchisi maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish to'g'risidagi xabarnomani imzolaydi va uni axborot tizimiga yuboradi;

v) axborot tizimi operatori ushbu xabarnomalarni olganidan so'ng ma'lumotlar tizimining maishiy texnika mahsulotlarini identifikatsiya qilish vositalari reyestrda maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kiritish to'g'risidagi xabarnomaga muvofiq ma'lumotlar to'g'rilanganligi faktini aks ettiradi;

g) agar maishiy texnika mahsulotlari aylanmasining ishtirokchilaridan biri (jo'natuvchi yoki oluvchi) maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) haqidagi ma'lumotlarga, maishiy texnika mahsulotlari aylanmasining ikkala ishtirokchisi (jo'natuvchi va oluvchi) tomonidan imzolangan, aniqlik kiritish to'g'risidagi xabarnomani (umumiy tuzatuvchi hujjat yoki tuzatuvchi universal o'tkazish hujjati shaklida) axborot tizimiga yuborgan bo'lsa, ushbu maishiy texnika mahsulotiga nisbatan ushbu bandning "a" va "b" kichik bandlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar maishiy texnika mahsulotlari aylanmasining boshqa ishtirokchisi tomonidan axborot tizimiga yuborilmasligi mumkin. Maishiy texnika mahsulotlari aylanmasining ikkala ishtirokchisi tomonidan imzolangan xabarnomani olganidan so'ng axborot tizimining operatori ma'lumotlar tizimining maishiy texnika mahsulotlarini identifikatsiya qilish vositalari reyestrda maishiy texnika mahsulotlarini o'tkazish (qabul qilish) haqidagi ma'lumotlarga aniqlik kirish to'g'risidagi xabarnomaga muvofiq ma'lumotlar to'g'rilanganligi faktini aks ettiradi.

90. Chakana savdoga qo'yilmaydigan maishiy texnika mahsulotlarini aylanmadan chiqarish to'g'risida ilgari operatorga berilgan ma'lumotni bekor qilish yoki tuzatish uchun maishiy texnika mahsuloti aylanmasi ishtirokchisi axborot tizimi operatoriga rekvizitlarni ko'rsatgan holda ilgari yuborilgan xabarnomani bekor qilish to'g'risida xabarnoma yuboradi va zaruratga ko'ra ushbu Vaqtinchalik nizomning **81-bandida** ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yangi xabarnoma yuboradi.

91. Maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisining faoliyatini tekshiradigan davrda vakolatli ijro etuvchi organ tomonidan ma'lumotlar o'zgarishi to'g'risida yuborgan bildirishnomaga asosan maishiy texnika aylanmasi ishtirokchisi tomonidan ilgari taqdim etilgan maishiy texnika muomalaga kiritilishi, maishiy texnika aylanmasi va ularning muomaladan chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarga oid axborot tizimiga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

12-bob. Axborot tizimida joylashtirilgan ma'lumotlarga kirish va ulardan foydalanish

92. Axborot tizimining operatori tizimdagi mavjud bo'lgan umumiy ma'lumotlardan Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida joylashtirish orqali manfaatdor shaxslarning foydalanish imkoniyatini beradi.

93. Axborot tizimining operatori quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadigan bepul mobil ilovani ishlab chiqadi va Internetda bepul foydalanishga joylashtiradi:

a) mahsulot yoki mahsulot yorlig'idan identifikatsiyalash vositalarini o'qish;

b) maishiy texnikani identifikatsiya qilish vositalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni axborot tizimiga yuborish;

v) tekshirilayotgan maishiy texnika mahsuloti to'g'risidagi ma'lumotlarni, shu jumladan, maishiy texnika mahsulotining nomi, ishlab chiqaruvchisi, maishiy texnika mahsulotining amaldagi (oxirgi) egasi, maishiy texnika mahsuloti (maishiy texnika mahsulotining identifikatsiya vositasi) holati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, ushbu ma'lumotlarni elektron qurilma ekranida aks ettirish;

g) mobil ilova foydalanuvchisi tomonidan axborot tizimiga markirovkalash tartibi buzilishi holatlari yuzasidan ma'lumotlarni yuborish.

94. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq axborot tizimida mavjud bo'lgan va foydalanish cheklangan ma'lumotlar qo'yidagi holatlardi taqdim etiladi:

a) ijro etuvchi organlarga shaxsiy kabinet orqali yoki elektron hujjatlarni almashish orqali, shu jumladan, davlat va shahar xizmatlarini ko'rsatish uchun foydalaniladigan axborot tizimlarining axborot va texnologik o'zaro ta'sirini ta'minlovchi infratuzilma orqali;

b) axborot tizimiga kirish uchun ma'lumot taqdim etishlari shart bo'lgan maishiy texnika aylanmasi ishtirokchilariga, shuningdek, maishiy texnika mahsulotlarini savdo ishtirokchisining shaxsiy kabineti yoki elektron xizmatlardan foydalangan holda axborot tizimiga o'tkaziladigan hajm va tarkibda amalga oshiriladi.

Maishiy texnikalarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo'yicha tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizamga
1-ILOVA

20__y. "____"

"Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimi operatori "CRPT TURON" mas'uliyati cheklangan jamiyatga

Markirovkalash axborot tizimida ro'yxatdan o'tish bo'yicha
ARIZA

1. Ariza beruvchi

(yuridik shaxsning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli)

2. Ariza beruvchi joylashgan joyi (pochta manzili): _____

(joylashgan joyi (pochta manzili), telefon raqami, faks va boshqalar)

3. Ariza beruvchining bank rekvizitlari _____

"Asl belgisi" mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazib berishingizni so'rayman:

Ro'yxatdan o'tish uchun tegishli ma'lumotlar:

Tashkilotning elektron pochta: _____

Tashkilotning telefon raqami: _____

Tashkilot rahbarining lavozimi

(imzo)

(rahbarning F.I.O.)

Maishiy texnikalarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo'yicha tajriba loyihasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizamga
2-ILOVA

Tajriba loyihasi doirasida raqamli markirovkalanadigan maishiy texnika

RO'YXATI

T/r	TIF TN kodi	MST kodi	Mahsulot turi nomi
1.	8414	27.51.15.1	Quvvati 125 Vt dan ko'p bo'lmagan elektr dvigateli o'rnatilgan, stolda, polda turadigan, devorga osiladigan, tomga yoki derazaga o'rnatiladigan maishiy ventilyatorlar
		27.51.15.2	Maksimal gorizontal o'lchami 120 sm dan ko'p bo'lmagan maishiy tortuvchi yoki retsirkulatsiya shkaflari va qalpoqlari
		28.25.20.0	Ventilyatorlar (stolga, polga, devorga, derazaga, shiftga yoki tomga o'rnatiladigan ventilyatorlardan tashqari)
2.	8415	28.25.12.1	Deraza yoki devorga o'rnatiladigan turdagi havoni konditsiyalash uchun uskunalar yoki "split-tizimlar"
		28.25.12.2	Motorli transport vositalarida ishlatiladigan havoni konditsiyalash uchun uskunalar

		28.25.12.3	Havoni konditsiyalash uchun boshqa uskunalar
3.	8418	27.51.11.1	Alohida tashqi eshikli birlashtirilgan sovutkich-muzlatkichlar
		27.51.11.2	Maishiy sovutkichlar
		27.51.11.3	Sig'imi 800 l dan ortiq bo'lmagan "yashik" turidagi muzlatkichlar
		27.51.11.4	Sig'imi 900 l dan ortiq bo'lmagan vertikal turdagi muzlatkichlar
		28.25.13.1	Sovitish yoki muzlatish uskunalari (maishiy uskunalaridan tashqari) o'rnatilgan mebellar (vitrinalar, peshtaxtalar, shkaflar)
		28.25.13.2	Issiqlik nasoslari
4.	8422	27.51.12.0	Maishiy idish yuvish mashinalari
		28.29.50.0	Sanoat idish yuvish mashinalari (nomaishiy)
5.	8423	28.29.32.0	Odamlarning og'irligini o'lchash uchun maishiy tarozlar va individual og'irlik o'lchash moslamalari
		28.29.39.0	Og'irlik o'lchash va dozalash uchun boshqa uskunalar, vaterpaslar, metr o'lchagichlar va shu kabi dastaki asboblari
6.	8450	27.51.13.0	Maishiy kir yuvish mashinalari va kiyim quritish mashinalari
		28.94.22.0	Kirxonalar uchun kir yuvish mashinalari; quruq tozalash uchun mashinalar; 10 kg dan ortiq hajmli quritish mashinalari
7.	8508	27.51.21.1	Elektr dvigateli o'rnatilgan maishiy chang yutkichlar
		27.51.24.1	Elektr dvigateli o'rnatilmagan maishiy chang yutkichlar
8.	8509	27.51.21.2	Elektr dvigateli o'rnatilgan maishiy oziq-ovqatlarni maydalovchi asboblari, miksyerlar va meva yoki sabzavotlar uchun sharbat siqqichlar
		27.51.21.3	Elektr dvigateli o'rnatilgan boshqa maishiy elektrmexanik priborlar
9.	8510	27.51.22.0	Elektr dvigateli o'rnatilgan ustalar, soch kesish uchun mashinkalar va soch olish uchun moslamalar
10.	8516	27.51.23.1	Elektr soch quritkichlar
		27.51.23.2	Sochlarni parvarishlash uchun, jumladan, sochlarni turmaklash va jingalak qilish uchun, elektr termik priborlar (soch quritkichlardan tashqari)
		27.51.23.3	Qo'l uchun elektr quritkichlar
		27.51.23.4	Elektr dazmollar
		27.51.24.2	Maishiy elektr kofe qaynatuvchi asboblari va elektr choynaklar
		27.51.24.3	Maishiy elektr tostyerlar
		27.51.24.4	Boshqa guruhlariga kiritilmagan maishiy elektr isitgich priborlar
		27.51.25.1	Inersiyasiz elektr isitgichlar
		27.51.25.2	Cho'ktirma elektr isitgichlar (elektr qaynatgichlar), jumladan, portativ elektr isitgichlar
		27.51.25.9	Boshqa elektr isitgichlar
		27.51.26.1	Issiqlik to'plovchi elektr radiatorlar
		27.51.26.2	Suyuqlik to'ldirilgan elektr radiatorlar; elektr konvektorlar; ventilyator o'rnatilgan isitish uchun elektr priborlar
		27.51.26.3	Bino yoki tuproq uchun boshqa elektr isitgichlar
		27.51.27.0	Maishiy mikroto'lqinli pechlar
		27.51.28.0	Boshqa maishiy pechlar; pishirish uchun qozonlar, oshxona plitalari, manqallar; grillar, rostyerlar
		27.51.29.0	Isitish uchun elektr qarshiliklar
11.	8518	26.40.41.0	Mikrofonlar va ular uchun tagliklar
		26.40.42.0	Radiokarnaylar; mikrofon bilan birlashtirilgan yoki birlashtirilmagan boshqa kiyiladigan telefonlar, naushniklar, mikrofon va bir yoki undan ko'p radiokarnaylardan tashkil topgan to'plamlar

		26.40.43.0	Tovush chastotasini elektr kuchaytirgich; elektr tovush kuchaytiruvchi to'plamlar
12.	8519	26.40.31.0	Proigrivatellar (musiqqa avtomatlari), gramplastinkalar uchun elektr proigrivatellar, kassetali pleyerlar va boshqa tovush aks ettirish apparaturalari
		26.40.32.0	Magnitofonlar va boshqa ovoz yozish apparaturasi
		26.40.32.0	Magnitofonlar va boshqa ovoz yozish apparaturasi
13.	8521	26.40.33.0	Videokamera-rekodyerlar va boshqa videoyozish yoki aks ettirish apparaturasi
14.	8525	26.30.11.0	Radio va televideniye uchun qabul qiluvchi qurilmali uzatuvchi apparatura
		26.30.12.0	Radio va televideniye uchun qabul qiluvchi qurilmasiz uzatuvchi apparatura
		26.30.13.0	Televizion kameralar
		26.70.13.0	Raqamli kameralar
15.	8527	26.40.11.0	Tashqi elektr energiyasi manbasisiz ishlaydigan va keng omma uchun radiopriyomniklar (avtomobillar uchun radiopriyomniklardan tashqari)
		26.40.12.1	Tovush yozish yoki tovush aks ettirish apparaturasi bilan birlashtirilgan, keng omma uchun statsionar radiopriyomniklar, jumladan, avtomobillar uchun radiopriyomniklar
		26.40.12.2	Keng omma uchun boshqa statsionar radiopriyomniklar, jumladan, avtomobillar uchun radiopriyomniklar
		26.40.44.0	Boshqa guruhlariga kiritilmagan, radiotelefon yoki radiotelegraf aloqasi uchun qabul qiluvchi apparatura
16.	8528	26.20.17.1	Asosan ma'lumotlarga avtomatik ishlov berish bo'yicha tizimlarda ishlatiladigan monitorlar
		26.20.17.2	Asosan ma'lumotlarga avtomatik ishlov berish bo'yicha tizimlarda ishlatiladigan proyektorlar
		26.40.20.1	Rangli tasvirli videotyunerlar
		26.40.20.2	Rangli tasvirli televizion proyeksion uskunalar
		26.40.20.3	Suyuq kristalli displeylar yoki plazmali panellar texnologiyasi bo'yicha tayyorlangan ekranli televizion priyomniklar
		26.40.20.4	Boshqa guruhlariga kiritilmagan, keng omma uchun radiopriyomniklar yoki tovush yozish yoki tovush aks ettirish apparaturasi bilan birlashtirilgan yoki birlashtirilmagan boshqa televizion priyomniklar (suyuq kristalli displeylar yoki plazmali panellardan tashqari)
		26.40.34.1	Televizion qabul qilish apparaturasi o'rnatilmagan va asosan ma'lumotlarga avtomatik ishlov berish bo'yicha tizimlarda ishlatilmaydigan monitorlar
26.40.34.2	Televizion qabul qilish apparaturasi o'rnatilmagan va asosan ma'lumotlarga avtomatik ishlov berish bo'yicha tizimlarda ishlatilmaydigan proyektorlar		

Maishiy texnikalarni raqamli markirovkalash va kuzatib borish bo'yicha tajriba loyahasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizamga
3-ILOVA

Maishiy texnikalarni raqamli markirovkalash va kuzatish

SXEMASI

Subyektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
------------	-----------	--------------

1-bosqich. Subyektning ro'yxatdan o'tkazish

Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Zarur ma'lumotlar ko'rsatilgan arizani operatorga aloqa kanallari orqali yuboradi yoki uni "Asl belgisi" mahsulotlarni raqamli markirovkalash va kuzatilishi bo'yicha milliy axborot tizimining veb-saytida (keyingi o'rinlardi — MMK MAT) shakllantiradi.	Real vaqt rejimida
Operator	Agar ariza Vaqtinchalik nizomda belgilangan talablarga muvofiq bo'lsa: subyektning ishtirokchilar reyestriga kiritadi; ishtirokchi uchun shaxsiy kabinet ochadi; subyektga ishtirokchilar ro'yxatiga kiritilgani va shaxsiy kabinet ochilgani to'g'risida xabar beradi. Xabarnomada, shuningdek, ishtirokchilar ro'yxatidagi tajriba loyihasi ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarga berilgan ro'yxatdan o'tish raqamlari ko'rsatiladi.	Ariza olingan vaqtdan boshlab 2 (ikki) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda
Operator	Vaqtinchalik nizom talablariga javob bermaydigan ma'lumot yuborilganda va/yoki zarur ma'lumotlar taqdim etilmagan taqdirda, subyektning ro'yxatdan o'tkazishni rad etadi.	Ariza olingan vaqtdan boshlab 2 (ikki) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda

2-bosqich. Maishiy texnikalarni qayd qilish

Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Zarur ma'lumotlar ko'rsatilgan holda maishiy texnikalarni qayd etish bo'yicha arizani operatorga aloqa kanallari orqali yuboradi yoki uni MMK MAT veb-saytida shakllantiradi.	Real vaqt rejimida
Operator	Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlar Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq bo'lgan taqdirda: arizada keltirilgan ma'lumotlarni mahsulot ro'yxatiga kiritadi; tajriba loyihasi ishtirokchisini dori vositalari va tibbiy buyumlar ro'yxatiga kiritilganligi to'g'risida xabardor qiladi.	Real vaqt rejimida

3-bosqich. Markirovkalash uchun kodlarni taqdim etish

Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan maishiy texnikalarni raqamli markirovkalash uchun kodlarni olishga Operatorga aloqa kanallari orqali buyurtmanoma yuboradi.	Real vaqt rejimida
Operator	Agar buyurtmada ko'rsatilgan ma'lumotlar Vaqtinchalik nizom talablariga muvofiq bo'lsa: kerakli miqdordagi markirovkalash kodlarini seriyalashtiradi; tajriba loyihasi ishtirokchisi — ishlab chiqaruvchi yoki maishiy texnikalarni import qiluvchiga ushbu kodlarning ro'yxatini taqdim etadi; taqdim etilgan kodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni IV ro'yxatiga kiritadi.	Real vaqt rejimida
Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Operatorga ro'yxatdagi kodlar olinganligi to'g'risidagi tasdiqni yuboradi. Markirovkalash kodlarini identifikatsiya vositasiga o'zgartiradi.	Markirovka kodlari ro'yxati olingan vaqtdan boshlab real vaqt rejimida

	<p>Identifikatsiyalash vositasi maishiy texnikalarda qo'llanilishini ta'minlaydi.</p> <p>MMK MATga markirovkalash kodlaridan foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yuboradi (mahsulot kodi, identifikatsiya kodi, markirovkalash sanasi va vaqti, qo'llanilgan identifikatsiya vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar).</p>	<p>Maishiy texnikalarning qutilarida identifikatsiyalash vositalari qo'llanilgandan so'ng</p>
4-bosqich. Maishiy texnikalarni ishlab chiqarish va ularning aylanishini monitoring qilish		
Tajriba loyihasi ishtirokchisi (ishlab chiqaruvchi)	<p>Maishiy texnikalar agregatsiyasini amalga oshiradi .</p> <p>MMK MAT orqali avtomatik rejimda Operatorga mahsulot kodlari hamda yangi guruh va transport paketlarini identifikatsiyalash, shuningdek, mahsulot va qadoqlash kodlari ro'yxati, shu jumladan, avvalgi darajadagi qadoqlar (masalan, paletlarni tuzishda, uning tarkibiga kiruvchi qutilar ro'yxati ko'rsatiladi) to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha xabar beradi.</p>	<p>Real vaqt rejimida</p> <p>Real vaqt rejimida</p>
	<p>Mulkka egalik huquqi o'tkazilganligini yoki tovarlar sotish uchun berilganligini tasdiqlovchi birlamchi hujjat asosida maishiy texnikalar muomalasi subyektlari — tajriba loyihasi ishtirokchilari o'rtasida maishiy texnikalarni topshirish (qabul qilish) vaqtida bitim taraflari:</p> <p>Maishiy texnikalarni topshirish (qabul qilish) to'g'risida tovar yo'llanma varaqasi shaklida bildirishnoma tuzadi;</p> <p>tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan ko'rsatilgan bildirishnoma imzolanadi;</p> <p>topshirish (qabul qilish) to'g'risida bildirishnoma va birlamchi hujjatning elektron nusxasini MMK MATga yuboradi, shuningdek, ma'lumotni elektron hisob-varaq faktura ma'lumotlari bilan integratsiyalashtiradi.</p>	<p>Maishiy texnikalarga egalik huquqi o'tgandan so'ng 72 (yetmish ikki) soatdan ko'p bo'lmagan muddatda</p>
Tajriba loyihasi ishtirokchisi (import qiluvchi)	<p>Import qilinayotgan mahsulotlarni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtiradi.</p>	<p>Real vaqt rejimida</p>
	<p>Erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgandan keyin operatorga tovarlar deklaratsiyasida ko'rsatilgan tovarlarni chiqarish to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni taqdim etadi:</p> <p>bojxona organi kodi;</p> <p>tovar deklaratsiyasini ro'yxatdan o'tkazish sanasi;</p> <p>tovar deklaratsiyasini ro'yxatdan o'tkazish raqami;</p> <p>TIF TN kodlari;</p> <p>transport qadoqlarining markirovka kodi va tovar nomi;</p> <p>tovarning kelib chiqish mamlakati kodi.</p>	<p>Real vaqt rejimida</p>
Operator	<p>ma'lumotlarni olgandan keyin ularni MMK MAT reyestrda aks etilishini ta'minlaydi.</p>	<p>Real vaqt rejimida</p>
5-bosqich. Maishiy texnikalarni muomaladan chiqarish		

Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Ulgurji tashkilot maishiy texnikalarni onlayn — kassa apparatlari mavjud bo‘lmagan chakana tashkilotlarga sotayotgan hollarda, tajriba loyihasining ishtirokchisi — ulgurji savdo tashkiloti sotiladigan maishiy texnikalar qadoqlarida qo‘llanilgan identifikatsiya vositasini onlayn-kassa apparatlari bilan birlashtirilgan texnik vositalar yordamida skanerlaydi va taniydi.	Real vaqt rejimida
Tajriba loyihasi ishtirokchisi	Mahsulot kodi va identifikatsiya kodi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar onlayn-kassa apparati orqali shakllantirilgan “kassa cheki” fiskal hujjatga kiritiladi.	Real vaqt rejimida
Fiskal ma‘lumotlar operatori	Nazorat kassa chekidagi sotilgan har bir birlik bo‘yicha nazorat kassa mashinasining ro‘yxatga olingan raqami, sotilgan sana, sotish narxi, mahsulot kodi va tarkibidagi identifikatsiya kodi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni MMK MATga uzatadi. Onlayn-kassa apparati ishlamay qolishi hollari bundan mustasno.	Maishiy texnikalar sotilgan vaqtdan boshlab bir sutkadan kech qolmagan muddatda
Operator	Fiskal ma‘lumotlar operatoridan olingan ma‘lumotlarga muvofiq identifikatsiya vositasi bilan raqamli markirovkalangan Maishiy texnikalarning muomaladan chiqishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni IV ro‘yxatida aks ettiradi.	Real vaqt rejimida

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 322-son qaroriga
6-ILOVA

Ayrim turdagi mahsulotlarning yangi toifalarini raqamli markirovkalash mexanizmlarini ishlab chiqish tajriba loyihasini amalga oshirish bo‘yicha

TADBIRLAR REJASI (“YO‘L XARITASI”)

T/r	Chora-tadbirning nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas‘ul ijrochilar
1. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash bo‘yicha metodologik tajriba bazasini yaratish				
1.1.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruh tuzish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruh tarkibini, shu jumladan asosiy vazifa hamda funksiyalarini kelishish va tasdiqlash.	2021-yil may	Davlat soliq qo‘mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

1.2.	Hujjatlarning shakllari va formatlarini tasdiqlash.	Dori vositalari va tibbiy buyumlar muomalasi subyektlariga kiradigan tajriba loyihasi ishtirokchilarining MMK AT bilan o‘zaro aloqador bo‘lsa foydalaniladigan elektron hujjatlarning shakllari va formatlarini, shuningdek, ushbu hujjatlarni to‘ldirish qoidalarini, tekshirish qoidalarini, dori vositalari va tibbiy buyumlar turlarini va formalarini hamda shu bilan birga foydalaniladigan ma’lumotnomalarni ishlab chiqish va tasdiqlash.	2021-yil may	Davlat soliq qo‘mitasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Farmagentlik), “CRPT TURON” MChJ
2.1.	Ishtirokchilar bilan yig‘ilishlar o‘tkazish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish mexanizmlari bilan tanishtirish maqsadida tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan yig‘ilishlar tashkil etish.	2021-yil may	Davlat soliq qo‘mitasi, Farmagentlik, “CRPT TURON” MChJ
2.2.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarni sotish mexanizmlarini o‘rganish.	Ishlab chiqaruvchilar, tarqatuvchilar va ulgurji va chakana savdo qiluvchilarning hamda tibbiy muassasalarning mavjud ishlab chiqarish, logistika va axborot tizimlarini o‘rganish.	2021-yil may	“CRPT TURON” MChJ Davlat soliq qo‘mitasi, Farmagentlik
		Import qiluvchilar, tarqatuvchilar va ulgurji va chakana savdo qiluvchilarning hamda tibbiy muassasalarning mavjud ishlab chiqarish, logistika va axborot tizimlarini o‘rganish.	2021-yil may	“CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Farmagentlik
2.3.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini o‘qitish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo‘yicha seminar va o‘quv-treninglar tashkil etish.	2021-yil may	“CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo‘mitasi
3.1.	Tajriba loyihasini ishga tushirish.	Tajriba loyihasining har bir bosqichini boshlash, mahsulotlarni identifikatsiya vositalari yordamida markirovkalash va kelgusida kuzatish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish.	2021-yil iyun	Davlat soliq qo‘mitasi, Farmagentlik, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
3.2.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini identifikatsiya vositalarida ro‘yxatga olish (ishlab chiqaruvchilar, ulgurji sotuvchilar, chakana sotuvchilar).	2021-yil iyun	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

3.3.	Identifikatsiya vositalarini ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida ishlab chiqarish yoki muomalasi amalga oshiriladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni (dori vositalari va tibbiy buyum turini) identifikatsiya vositalarida ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyun	“CRPT TURON” MChJ, Farmagentlik, tajriba loyihasi ishtirokchilari
4.1.	Tajriba loyihasini ishga tushirish uchun infratuzilmani tayyorlash.	Tajriba loyihasini ishga tushirish uchun infratuzilmani tayyorlash, operator maydonida zarur identifikatsiya qilish vositalari komponentlarini o'rnatish, MMK AT ni sozlash va ishga tushirish.	2021-yil iyun	Farmagentlik, “CRPT TURON” MChJ
4.2.	Ishtirokchilar maydonlarida zarur identifikatsiya vositalarni o'rnatish.	Tajriba loyihasining ishtirokchilari maydonida zarur identifikatsiyalash vositalari komponentlarini o'rnatish va MMK ATga ulanishini ta'minlash.	2021-yil iyun	Farmagentlik, “CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.1.	Raqamli markirovkalanadigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida ishlab chiqariladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni (dori vositalari va tibbiy buyum turlarini) MMK ATda ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ, Farmagentlik, tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.2.	Mahsulotlarni markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Ishlab chiqaruvchilari tomonidan mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ Davlat soliq qo'mitasi, tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.3.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilardan ulgurji savdo tashkilotlariga yetkazish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar ulgurji bo'g'in muomalasi ishtirokchilari bilan birgalikda dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilardan ulgurji savdo tashkilotlariga berish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	Farmagentlik, “CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.1.	Import qilingan dori vositalari va tibbiy buyumlarni yorliqlash jarayoni va usullarini aniqlash.	Respublika hududiga import qilinayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni yorliqlash jarayonini va usullarini o'rganish.	2021-yil iyul	Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

6.2.	Import qilinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida import qilinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni (dori vositalari va tibbiy buyum tovarlarni) MMK ATda ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.3.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari — dori vositalari va tibbiy buyumlarni import qiluvchilar tomonidan identifikatsiya vositalari orqali dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.4.	Import qilingan dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari — dori vositalari va tibbiy buyumlarni import qiluvchilar va ulgurji bo'g'in muomalasi ishtirokchilari bilan birgalikda dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji savdo tashkilotlariga berish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.1.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarni iste'molchilarga yetkazish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Ulgurji va chakana bo'g'in muomalasining ishtirokchilari tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarni iste'molchilarga yetkazish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil sentyabr	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.2.	Tibbiyot muassasalarning raqamli markirovkalangan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini muomaladan chiqarilishini ta'minlash.	Dori vositalari va tibbiyot buyumlarini tibbiy maqsadlarda foydalanish sababli muomaladan olib qo'yilishini qayd etish uchun maxsus (mobil) dastur o'rnatish uchun mo'ljallangan mobil qurilmalar bilan ta'minlash.	2021-yil sentyabr	Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.3.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarni muomaladan chiqarish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Chakana bo'g'in muomalasi ishtirokchilari tomonidan Dori vositalari va tibbiy buyumlarni muomaladan chiqarish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil sentyabr	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.4.	Tajriba loyihasi yuzasidan dastlabki natijalar bo'yicha uchrashuv o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan Dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash tizimining dastlabki natijalarini sarhisob qilish maqsadida uchrashuv o'tkazish.	2021-yil sentyabr	Davlat soliq qo'mitasi “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

8.1.	Tajriba loyihasi natijalari bo'yicha yig'ilish o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan tajriba loyihasi natijalari bo'yicha yig'ilish o'tkazish.	2021-yil noyabr	Davlat soliq qo'mitasi, "CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
8.2.	Tajriba loyihasi natijalari yuzasidan hisobotni Vazirlar Mahkamasiga yuborish.	Dori vositalari va tibbiy buyumlarni markirovkalash tizimining tajriba loyihasi natijalari haqida Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot hamda majburiy raqamli markirovkalash tizimini kengaytirish yuzasidan taklif kiritish.	2021-yil noyabr	Davlat soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
2. Suv va salqin ichimliklarni markirovkalash bo'yicha metodologik tajriba bazasini yaratish				
1.1.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishchi guruh tuzish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishchi guruh tarkibini, shu jumladan asosiy vazifa hamda funksiyalarini kelishish va tasdiqlash.	2021-yil may	Davlat soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar, "CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
1.2.	Hujjatlarning shakllari va formatlarini tasdiqlash.	Suv va salqin ichimliklar muomalasi subyektlariga kiradigan tajriba loyihasi ishtirokchilarining MMK AT bilan o'zaro aloqadorligi bo'yicha foydalaniladigan elektron hujjatlarning shakllari va formatlarini, shuningdek, ushbu hujjatlarni to'ldirish qoidalarini, tekshirish qoidalarini, suv va salqin ichimliklarni turlarini va formalarini hamda shu bilan birga foydalaniladigan ma'lumotnomalarni ishlab chiqish va tasdiqlash.	2021-yil may	Davlat soliq qo'mitasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, "CRPT TURON" MChJ
2.1.	Ishtirokchilar bilan yig'ilishlar o'tkazish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish mexanizmlari bilan tanishtirish maqsadida tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan yig'ilishlar tashkil etish.	2021-yil may	Davlat soliq qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, "CRPT TURON" MChJ
2.2.	Suv va salqin ichimliklarni sotish mexanizmlarini o'rganish.	Ishlab chiqaruvchilar, tarqatuvchilar va ulgurji va chakana savdo qiluvchilarning mavjud ishlab chiqarish, logistika va axborot tizimlarini o'rganish.	2021-yil may	"CRPT TURON" MChJ Davlat soliq qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi

		Import qiluvchilar, tarqatuvchilar va ulgurji va chakana savdo qiluvchilarning mavjud ishlab chiqarish, logistika va axborot tizimlarini o'rganish.	2021-yil may	“CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi
2.3.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini o'qitish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo'yicha seminar va o'quv-treninglar tashkil etish.	2021-yil may	“CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi
3.1.	Tajriba loyihasini ishga tushirish.	Tajriba loyihasining har bir bosqichini boshlash, mahsulotlarni identifikatsiya vositalari yordamida markirovkalash va kelgusida kuzatish mexanizmlarini yo'lga qo'yish.	2021-yil iyun	Davlat soliq qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
3.2.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini identifikatsiya vositalarida ro'yxatga olish (ishlab chiqaruvchilar, ulgurji sotuvchilar, chakana sotuvchilar).	2021-yil iyun	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
3.3.	Identifikatsiya vositalarini ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida ishlab chiqarish yoki muomalasi amalga oshiriladigan suv va salqin ichimliklarni (suv va salqin ichimliklarni turini) identifikatsiya vositalarida ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyun	“CRPT TURON” MChJ, Qishloq xo'jaligi vazirligi, tajriba loyihasi ishtirokchilari
4.1.	Tajriba loyihasini ishga tushirish uchun infratuzilmani tayyorlash.	Tajriba loyihasini ishga tushirish uchun infratuzilmani tayyorlash, operator maydonida zarur identifikatsiya vositalari komponentlarini o'rnatish, MMK ATni sozlash va ishga tushirish.	2021-yil iyun	Qishloq xo'jaligi vazirligi, “CRPT TURON” MChJ
4.2.	Ishtirokchilar maydonlarida zarur identifikatsiya vositalarni o'rnatish.	Tajriba loyihasining ishtirokchilari maydonida zarur identifikatsiya vositalari komponentlarini o'rnatish va MMK ATga ulanishini ta'minlash.	2021-yil iyun	Qishloq xo'jaligi vazirligi, “CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi tajriba loyihasi ishtirokchilari

5.1.	Raqamli markirovkalanadigan suv va salqin ichimliklarni ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida ishlab chiqariladigan suv va salqin ichimliklarni (suv va salqin ichimliklarni) MMK ATda ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ, Qishloq xo'jaligi vazirligi, tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.2.	Mahsulotlarni markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Ishlab chiqaruvchilari tomonidan mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ Davlat soliq qo'mitasi, tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.3.	Suv va salqin ichimliklarni ishlab chiqaruvchilardan ulgurji savdo tashkilotlariga yetkazish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	Suv va salqin ichimliklarni ishlab chiqaruvchilar ulgurji bo'g'in muomalasi ishtirokchilari bilan birgalikda suv va salqin ichimliklarni ishlab chiqaruvchilardan ulgurji savdo tashkilotlariga berish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	Qishloq xo'jaligi vazirligi, “CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.1.	Import qilingan suv va salqin ichimliklarni yorliqlash jarayoni va usullarini aniqlash.	Respublika hududiga import qilinayotgan suv va salqin ichimliklarni yorliqlash jarayonini va usullarini o'rganish.	2021-yil iyul	Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.2.	Import qilinadigan suv va salqin ichimliklarni ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida import qilinadigan suv va salqin ichimliklarni (suv va salqin ichimliklarni turlarini) MMK ATda ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.3.	Suv va salqin ichimliklarni markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari — suv va salqin ichimliklarni import qiluvchilar tomonidan identifikatsiya vositalari orqali suv va salqin ichimliklarni markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.4.	Import qilingan suv va salqin ichimliklarni ulgurji va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari- suv va salqin ichimliklarni import qiluvchilar ulgurji bo'g'in muomalasi ishtirokchilari bilan birgalikda suv va salqin ichimliklarni ulgurji savdo tashkilotlariga berish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

7.1.	Suv va salqin ichimliklarni iste'molchilarga yetkazish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Ulgurji va chakana bo'g'in muomalasining ishtirokchilari tomonidan suv va salqin ichimliklarni iste'molchilarga yetkazish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil sentyabr	"CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.3.	Suv va salqin ichimliklarni muomaladan chiqarish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Chakana bo'g'in muomalasi ishtirokchilari tomonidan suv va salqin ichimliklarni muomaladan chiqarish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil sentyabr	"CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.4.	Tajriba loyihasi yuzasidan dastlabki natijalar bo'yicha uchrashuv o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan suv va salqin ichimliklarni markirovkalash tizimining dastlabki natijalarini sarhisob qilish maqsadida uchrashuv o'tkazish.	2021-yil sentyabr	Davlat soliq qo'mitasi "CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
8.1.	Tajriba loyihasi natijalari bo'yicha yig'ilish o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan tajriba loyihasi natijalari bo'yicha yig'ilish o'tkazish.	2021-yil noyabr	Davlat soliq qo'mitasi, "CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
8.2.	Tajriba loyihasi natijalari yuzasidan hisobotni Vazirlar Mahkamasiga yuborish.	Suv va salqin ichimliklarni markirovkalash tizimining tajriba loyihasi natijalari haqida Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot hamda majburiy raqamli markirovkalash tizimini kengaytirish yuzasidan taklif kiritish.	2021-yil noyabr	Davlat soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
3. Maishiy texnika mahsulotlarini markirovkalash bo'yicha metodologik tajriba bazasini yaratish				
1.1.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishchi guruh tuzish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishchi guruh tarkibini, shu jumladan asosiy vazifa hamda funksiyalarini kelishish va tasdiqlash.	2021-yil may	Davlat soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar, "CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

1.2.	Hujjatlarning shakllari va formatlarini tasdiqlash.	Maishiy texnika mahsulotlarinimuomalasi subyektlariga kiradigan tajriba loyihasi ishtirokchilarining MMK AT bilan o'zaro aloqadorligi bo'yicha foydalaniladigan elektron hujjatlarning shakllari va formatlarini, shuningdek, ushbu hujjatlarni to'ldirish qoidalarini, tekshirish qoidalarini, maishiy texnika mahsulotlarini turlarini va formalarini hamda shu bilan birga foydalaniladigan ma'lumotnomalarni ishlab chiqish va tasdiqlash.	2021-yil may	Davlat soliq qo'mitasi "O'zeltexsanoat" uyushmasi, "CRPT TURON" MChJ
2.1.	Ishtirokchilar bilan yig'ilishlar o'tkazish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish mexanizmlari bilan tanishtirish maqsadida tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan yig'ilishlar tashkil etish.	2021-yil may	Davlat soliq qo'mitasi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi, "CRPT TURON" MChJ
2.2.	Maishiy texnika mahsulotlarini sotish mexanizmlarini o'rganish.	Ishlab chiqaruvchilar, tarqatuvchilar va ulgurji va chakana savdo qiluvchilarning mavjud ishlab chiqarish, logistika va axborot tizimlarini o'rganish.	2021-yil may	"CRPT TURON" MChJ Davlat soliq qo'mitasi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi
		Import qiluvchilar, tarqatuvchilar va ulgurji va chakana savdo qiluvchilarning mavjud ishlab chiqarish, logistika va axborot tizimlarini o'rganish.	2021-yil may	"CRPT TURON" MChJ, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, Moliya vazirligi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi
2.3.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini o'qitish.	Tajriba loyihasini amalga oshirish bo'yicha seminar va o'quv-treninglar tashkil etish.	2021-yil may	"CRPT TURON" MChJ, Davlat soliq qo'mitasi
3.1.	Tajriba loyihasini ishga tushirish.	Tajriba loyihasining har bir bosqichini boshlash, mahsulotlarni identifikatsiya vositalari yordamida markirovkalash va kelgusida kuzatish mexanizmlarini yo'lga qo'yish.	2021-yil iyun	Davlat soliq qo'mitasi, "O'zeltexsanoat" uyushmasi, "CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
3.2.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilarini identifikatsiya vositalarida ro'yxatga olish (ishlab chiqaruvchilar, ulgurji sotuvchilar, chakana sotuvchilar).	2021-yil iyun	"CRPT TURON" MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

3.3.	Identifikatsiya vositalarini ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida ishlab chiqarish yoki muomalasi amalga oshiriladigan maishiy texnika mahsulotlarini (maishiy texnika mahsulotlarini turini) identifikatsiya vositalarida ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyun	“CRPT TURON” MChJ, “O‘zeltexsanoat” uyushmasi, tajriba loyihasi ishtirokchilari
4.1.	Tajriba loyihasini ishga tushirish uchun infratuzilmani tayyorlash.	Tajriba loyihasini ishga tushirish uchun infratuzilmani tayyorlash, operator maydonida zarur identifikatsiya vositalari komponentlarini o'rnatish, MMK ATni sozlash va ishga tushirish.	2021-yil iyun	“O‘zeltexsanoat” uyushmasi, “CRPT TURON” MChJ
4.2.	Ishtirokchilar maydonlarida zarur identifikatsiya vositalarni o'rnatish.	Tajriba loyihasining ishtirokchilari maydonida zarur identifikatsiya vositalari komponentlarini o'rnatish va MMK ATga ulanishini ta'minlash.	2021-yil iyun	“O‘zeltexsanoat” uyushmasi, “CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.1.	Raqamli markirovkalanadigan maishiy texnika mahsulotlarini ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida ishlab chiqariladigan maishiy texnika mahsulotlarini MMK ATda ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ, “O‘zeltexsanoat” uyushmasi, tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.2.	Mahsulotlarni markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Ishlab chiqaruvchilari tomonidan mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ Davlat soliq qo'mitasi, tajriba loyihasi ishtirokchilari
5.3.	Maishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilardan ulgurji savdo tashkilotlariga yetkazish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	Maishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar ulgurji bo'g'in muomalasi ishtirokchilari bilan birgalikda maishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilardan ulgurji savdo tashkilotlariga berish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	“O‘zeltexsanoat” uyushmasi, “CRPT TURON” MChJ, Davlat soliq qo'mitasi tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.1.	Import qilingan maishiy texnika mahsulotlarini yorliqlash jarayoni va usullarini aniqlash.	Respublika hududiga import qilinayotgan maishiy texnika mahsulotlarini yorliqlash jarayonini va usullarini o'rganish.	2021-yil iyul	Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

6.2.	Import qilinadigan maishiy texnika mahsulotlarini ro'yxatdan o'tkazish.	Tajriba loyihasi davomida import qilinadigan maishiy texnika mahsulotlarini MMK ATda ro'yxatdan o'tkazish.	2021-yil iyul	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.3.	Maishiy texnika mahsulotlarini markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari — maishiy texnika mahsulotlarini import qiluvchilar tomonidan identifikatsiya vositalari orqali maishiy texnika mahsulotlarini markirovkalash mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
6.4.	Import qilingan maishiy texnika mahsulotlarini ulgurji va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari- maishiy texnika mahsulotlarini import qiluvchilar ulgurji bo'g'in muomalasi ishtirokchilari bilan birgalikda maishiy texnika mahsulotlarini ulgurji savdo tashkilotlariga berish va chakana savdo tashkilotlari o'rtasida taqsimlashni sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil avgust	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.1.	Maishiy texnika mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Ulgurji va chakana bo'g'in muomalasining ishtirokchilari tomonidan maishiy texnika mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil sentyabr	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.3.	Maishiy texnika mahsulotlarini muomaladan chiqarish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	Chakana bo'g'in muomalasi ishtirokchilari tomonidan maishiy texnika mahsulotlarini muomaladan chiqarish mexanizmini sinov tarzda amalga oshirish.	2021-yil sentyabr	“CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
7.4.	Tajriba loyihasi yuzasidan dastlabki natijalar bo'yicha uchrashuv o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan maishiy texnika mahsulotlarini markirovkalash tizimining birinchi dastlabki natijalarini sarhisob qilish maqsadida uchrashuv o'tkazish.	2021-yil sentyabr	Davlat soliq qo'mitasi “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari
8.1.	Tajriba loyihasi natijalari bo'yicha yig'ilish o'tkazish.	Tajriba loyihasi ishtirokchilari bilan tajriba loyihasi natijalari bo'yicha yig'ilish o'tkazish.	2021-yil noyabr	Davlat soliq qo'mitasi, “CRPT TURON” MChJ, tajriba loyihasi ishtirokchilari

8.2.	Tajriba natijalari hisobotni Mahkamasiga yuborish.	loyihasi yuzasidan Vazirlar	Maishiy mahsulotlarinimarkirovkalash tizimining natijalari Mahkamasiga majburiy raqamli tizimini kengaytirish taklif kiritish.	texnika loyihasi Vazirlar hamda markirovkalash yuzasidan	2021-yil noyabr	Davlat soliq qo'mitasi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
------	--	-----------------------------	--	--	-----------------	--

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 322-son qaroriga
7-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga keladigan tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirishda bojxona tartibotlarini soddalashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 25-sentabrdagi 762-son qarorida:

a) 1-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“1. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo‘ljallangan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi dastlabki elektron ma‘lumotlarni taqdim etish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanish tartibi haqidagi nizom ilova muvofiq tasdiqlansin”.

b) 1 va 2-ilovalar quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 25-sentabrdagi 762-son qaroriga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo‘ljallangan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi dastlabki elektron ma‘lumotlarni taqdim etish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanish tartibi haqida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan avtomobil, temir yo‘l va havo transporti orqali O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo‘ljallangan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari to‘g‘risida bojxona organiga dastlabki elektron shakldagi axborotni taqdim etish, ro‘yxatdan o‘tkazish va undan foydalanish tartibotlarini, shuningdek, taqdim etish muddatlari va taqdim etish talab etilmaydigan holatlarni belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

dastlabki elektron shakldagi axborot (keyingi o‘rinlarda — dastlabki axborot) — O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlar, ularni tashuvchi transport vositalari, tovarlarni olib kirish vaqti va joyi hamda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali kirib keluvchi yo‘lovchilar va ularning bagajlari to‘g‘risida oldindan bojxona organlarining axborot tizimiga Internet tarmog‘i orqali taqdim etiladigan elektron ma‘lumotlar;

identifikatsiya kodi — O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari to‘g‘risida ma‘lumotlarning noyob turi;

yo‘lovchi nomining yozuvi (Passenger Name Record — PNR) — bron qilish bazasiga kiritilgan aviachiptalarni bron qilish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, bunda yo‘lovchi haqidagi shaxsiy, shuningdek, uning yoxud u bilan birga sayohat qilayotgan bir guruh yo‘lovchilarning yo‘nalishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks ettiriladi;

yo‘lovchi haqida dastlabki ma‘lumot (Advance Passenger Information — API) — tashuvchi tomonidan yetib borish davlatining nazorat qiluvchi organlariga taqdim etish uchun

avtomatik ravishda yig'iladigan yo'lovchilarning biografik va reysning boshqa ma'lumotlari to'g'risidagi dastlabki axborot;

format-mantiqiy nazorat — Davlat bojxona qo'mitasining yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida (keyingi o'rinlarda — DBQ YaAAT) taqdim etilayotgan axborotlarni mantiqan o'zaro taqqoslash yoki bojxona organlarida mavjud ma'lumotlar bilan solishtirish va ularning belgilangan formatga muvofiqligini dastlabki tekshiruvdan o'tkazish jarayoni.

3. O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali temir yo'l, avtomobil va havo transportida olib kirishga mo'ljallangan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risida oldindan bojxona organiga dastlabki axborotni taqdim etuvchi shaxslar quyidagilar hisoblanadi:

temir yo'l transportida — "O'zbekiston temir yo'llari" AJning yoki jamiyat tomonidan belgilangan mas'ul shaxslar;

avtomobil transportida — bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini amalda olib o'tuvchi shaxslar (haydovchi);

havo transportida — bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan havo transporti tegishli bo'lgan aviakompaniya yoki ular tomonidan belgilangan mas'ul shaxslar;

xalqaro kuryerlik jo'natmalarida — pochta aloqasi operatori yoki provayder yoxud ular tomonidan belgilangan mas'ul shaxslar;

tashuvchilar yoxud tovar egalari yoki tovarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar.

Dastlabki axborotni taqdim etuvchi shaxslar ma'lumotlarning haqqoniyligi va ushbu Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan muddatlarda bojxona organlariga taqdim etilishiga javobgar hisoblanadilar.

2-bob. Bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi dastlabki axborotni bojxona organiga taqdim etish va ko'rib chiqish

4. Bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risidagi dastlabki axborotni bojxona organiga taqdim etish va ko'rib chiqish ushbu Nizomga 1-ilovadagi Sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Dastlabki axborot taqdim etuvchi shaxslar bojxona axborot tizimidagi dastlabki axborotni taqdim etish dasturidan login va parol olgan holda ro'yxatdan o'tadilar.

Dastlabki axborotni taqdim etish mazkur Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan talablarga muvofiq Internet tarmog'i orqali taqdim etiladi. Ushbu dastlabki axborotdan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi doirasida foydalanishlari mumkin.

Temir yo'l va havo transporti orqali olib kirishga mo'ljallangan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risidagi dastlabki axborot alohida tashkil etilgan telekommunikatsiya tarmoqlari orqali taqdim etilishi mumkin.

6. Olib kirishga mo'ljallangan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risidagi dastlabki axborot ular bojxona hududiga amalda yetib kelgunga qadar bojxona organiga davlat tili, rus yoxud ingliz tilida taqdim etiladi.

7. Dastlabki axborot bojxona organlari axborot tizimiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

avtomobil transportining O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o'tishidan bir soat oldin;

temir yo'l transportining O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasiga yetib kelishidan bir soat oldin;

uzoq yoki o'rta magistral parvozni amalga oshirishda — havo transportining O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga uchib kelishidan ikki soat oldin;

yaqin magistral parvozlarni amalga oshirishda — havo transportining uchish vaqtida.

8. Avtomobil, temir yo'l va havo transporti orqali bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan (shu jumladan tranzit o'tadigan) tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risidagi dastlabki axborot bojxona organiga ushbu Nizomga 2 — 5-ilovalarga muvofiq taqdim etilishi shart.

Ushbu Nizomga 2 — 5-ilovalar talablariga muvofiq bo‘lmagan tarzda taqdim etilgan dastlabki axborot bojxona organlarining axborot tizimida avtomatik tarzda rad etilib, taqdim etilgan deb hisoblanmaydi.

3-bob. Dastlabki axborotni taqdim etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari

9. Dastlabki axborotni taqdim etuvchi shaxslar quyidagi huquqlarga ega:
ushbu Nizomda belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona maqsadlarida zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va ma'lumotlardan foydalanish;
bojxona maqsadlari uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash, elektron ma'lumotlarni uzatish uchun axborot tizimlaridan foydalanish;
ushbu Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan holatlarda dastlabki axborotni taqdim etmaslik;

taqdim etilgan dastlabki axborot rad etilganda, mazkur Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan muddatlarda hamda 2 — 5-ilovalarga muvofiqlashtirgan holda qayta taqdim etish;
taqdim etilgan dastlabki axborot asosida bojxona yuk deklaratsiyasini shakllantirish.

10. Dastlabki axborotni taqdim etuvchi shaxslar quyidagi majburiyatlarga ega:
dastlabki axborotni taqdim etish dasturida ro‘yxatdan o‘tish;
tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari to‘g‘risidagi dastlabki axborotni bojxona organlariga ushbu Nizomning 7-bandida belgilangan muddatlarda taqdim etish;

dastlabki axborotni tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga amalda yetib kelgunga qadar bojxona organlariga mazkur Nizomga 2 — 5-ilovalarga muvofiq taqdim etish;

dastlabki axborotda ko‘rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini va to‘liqligini ta'minlash.

4-bob. Dastlabki axborotni taqdim etish talab etilmaydigan holatlar

11. O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan quyidagi tovarlar va transport vositalari bo‘yicha bojxona organlariga dastlabki axborotni taqdim qilish majburiy hisoblanmaydi:

a) avtomobil o‘tkazish punktlari orqali jismoniy shaxslar tomonidan qo‘l yuki yoki kuzatib boriladigan bagajida olib kirilayotgan tovarlarga nisbatan;

b) bojxona imtiyozlaridan foydalanuvchi xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining xalqaro birlashmalar va tashkilotlar tomonidan rasmiy (xizmatda) foydalanishi maqsadida bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga nisbatan;

v) avariya yoki yengib bo‘lmas kuch ta’siri oqibatlarini bartaraf etish maqsadida olib kirilgan tovarlar va (yoki) transport vositalariga, shuningdek, insonparvarlik hamda texnik ko‘mak sifatidagi tovarlarga nisbatan;

g) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq berilgan va ruxsatnomalar bilan tasdiqlangan harbiy yuklarga nisbatan;

d) O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududining bir bojxona postidan boshqa bojxona postiga xorijiy davlatlar hududlari orqali olib o‘tilayotgan O‘zbekiston Respublikasi tovarlari va transport vositalariga nisbatan;

e) quvur transportida va elektr uzatish liniyalari orqali olib kirilayotgan tovarlarga nisbatan;

j) O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga amalda yetib kelguniga qadar dastlabki bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etilgan tovarlarga nisbatan.

5-bob. Bojxona organlarining dastlabki axborotdan foydalanish

12. Taqdim etilgan dastlabki axborot DBQ YaAATda real vaqt rejimida qabul qilinadi va format-mantiqiy nazoratdan ijobiy o‘tgandan so‘ng avtomatik tarzda axborot taqdim etuvchi shaxslarga identifikatsiya kodi berilgan holda ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Ushbu identifikatsiya kodi olib o‘tilishi rejalashtirilgan tovarlar va transport vositalari amalda bojxona chegarasiga yetib kelganida bojxona organiga taqdim etiladi.

13. Taqdim etilgan dastlabki axborotdan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- a) bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi rejalashtirilgan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari to‘g‘risida ma‘lumot olish va tahlil qilishda;
- b) xavflarni boshqarish tizimini qo‘llashda;
- v) tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari bojxona hududiga amalda kirib kelgunga qadar bojxona nazorati shakllari, ularning qo‘llanilish hajmini tanlash hamda tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha dastlabki qarorlarni qabul qilishda;
- g) bojxona operatsiyalari amalga oshirilishini tezlashtirish va bojxona nazorati o‘tkazilishini optimallashtirishda;
- d) yukni yetkazib berish nazorat hujjatlarini elektron shakllantirishda.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

14. Taqdim etilgan dastlabki axborotni oshkor etish, undan boshqa maqsadlarda foydalanish, uchinchi shaxslarga berish man etiladi.

15. Dastlabki axborot tizimga kiritilgandan kundan boshlab, 30 kalendar kun muddatgacha saqlanadi.

16. Ushbu Nizomda belgilangan talablarning buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo‘ljallangan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi dastlabki elektron ma‘lumotlarni taqdim etish, ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanish tartibi haqidagi nizomga

1-ILOVA

Bojxona hududiga olib kirishga mo‘ljallangan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari to‘g‘risidagi dastlabki axborotni bojxona organlariga taqdim etish va ko‘rib chiqish

SXEMASI

Bosqich	Subyektlar	Tadbirlar	Taqdim etish muddatlari	Ijro muddati	
1-bosqich	Dastlabki axborotni taqdim etuvchi shaxslar dastlabki axborotni taqdim etish	temir yo‘l transportida — “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ yoki jamiyat tomonidan belgilangan mas‘ul shaxslar;	Dastlabki axborotni taqdim etish mazkur Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq Internet tarmog‘i orqali taqdim etiladi.	<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; margin-bottom: 5px;">Avto: bojxona chegarasi orqali o‘tishidan bir soat oldin</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px;">Temir yo‘l: bojxona chegarasiga yetib kelishidan bir soat oldin</div>	Tovar, transport vositalari, shu jumladan yo‘lovchilar va ularning bagajlari amalda kirib kelgunga qadar

	<p>dasturida ro'yxatdan o'tadilar</p>	<p>avtomobil transportida — bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini amalda olib o'tuvchi shaxslar (haydovchi); havo transportida — bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan havo transporti tegishli bo'lgan aviakompaniya yoki ular tomonidan belgilangan mas'ul shaxslar;</p>	<p>Temir yo'l va xavo transportida olib kirishga mo'ljallangan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risida dastlabki axborot alohida tashkil etilgan telekommunikatsiya tarmoqlar orqali taqdim etilishi mumkin.</p>	<p>Havo transporti: uzoq yoki o'rta magistral parvozni amalga oshirishda — havo transportining O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga uchib kelishidan ikki soat oldin; yaqin magistral parvozlarni amalga oshirishda — havo transportining uchish vaqtida.</p>	
--	---------------------------------------	--	--	--	--

<p>2- bosqich</p>	<p>Davlat bojxona xizmati organi</p>	<p>Tovarlar va transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari to'g'risidagi dastlabki axborotni avtomatik ravishda Internet tarmog'i orqali qabul qilinishini ta'minlaydi.</p>	<p>Bojxona organiga taqdim etilgan dastlabki axborot DBQ YaAATdagi real vaqt rejimida format-mantiqiy nazoratdan ijobiy o'tgandan so'ng avtomatik tarzda axborot taqdim etuvchi shaxslarga identifikatsion kod bergan holda ruyxatdan o'tkaziladi.</p>	<p>Taqdim etilgan dastlabki axborotdan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: a) bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi rejalashtirilgan tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar, ularning qo'l yuklari va bagajlari to'g'risida ma'lumot olish va tahlil qilish; b) xavflarni boshqarish tizimini qo'llashda; v) tovarlar, transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar va ularning bagajlari bojxona hududiga kirib kelgunga qadar bojxona nazorati shakllari, ularning qo'llanilish hajmini tanlash hamda tegishli choralar ko'rish bo'yicha dastlabki qarorlarni qabul qilishda; g) bojxona operatsiyalari amalga oshirilishini tezlashtirish va bojxona nazorati o'tkazilishini optimallashtirishda; d) yukni yetkazib berish nazorat hujjatlarini elektron shakllantirishda.</p>	<p>Dastlabki axborot Internettarmoqlari orqali bojxona axborot tizimiga kelib tushganda</p>
-----------------------	--------------------------------------	---	--	---	---

Izoh. Dastlabki axborotni taqdim etuvchi shaxslar ma'lumotlarning haqqoniyligi va belgilangan vaqtda bojxona organlariga taqdim etilishiga javobgar hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi dastlabki elektron ma'lumotlarni taqdim etish, ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi haqidagi nizomga
2-ILOVA

Yuk tashuvlarini amalga oshirayotgan avtotransport vositalari va ularda tashilayotgan tovarlar to'g'risida bojxona organlariga taqdim etiladigan dastlabki axborot tarkibi

I. Dastlabki axborotni taqdim qiluvchi shaxs haqidagi ma'lumot

Jismoniy shaxs

1. F.I.O/(yuridik shaxsning nomi)
2. STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Pasport ma'lumotlari (seriyasi va raqami, berilgan vaqti, kim tomonidan berilgan)
4. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston rezidentlari uchun)*
5. Fuqaroligi
6. Manzili
7. Telefon raqami/elektron pochta manzili (email)

Yuridik shaxs

1. Nomi
2. STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Manzili (yuridik manzili)
4. Elektron pochta manzili (email)

II. Umumiy ma'lumotlar

1. Olib o'tish yo'nalish turi
2. Xalqaro yo'llarda tashish kitobchasi (XYT asosida tashilganda)
3. Xalqaro yo'llarda tashish kitobchasi raqami (XYT asosida tashilganda)
4. Tashuv boshlangan davlat
5. Tashuv tugallanadigan davlat
6. Tashuv turiga muvofiq ruxsatnoma (dozvol)**
7. Kirish bojxona posti
8. Chiqish bojxona posti
9. Tovar kirib kelishi kutilayotgan sana

III. Tashuvchi

1. Tashuvchi manzili (yuridik/pochta)
2. Yuridik/jismoniy shaxs
3. Tashuvchining nomi
4. Tashuvchining davlati
5. Tashuvchining telefon raqami
6. Tashuvchining STIRi (O'zbekiston Respublikasi rezidentlari uchun)
7. Bojxona tashuvchilarining reyestriga kiritilgan raqami

IV. Tovarga tegishli yo'l-yuk hujjatlari

1. Hujjat kodi
2. Hujjat raqami
3. Hujjat sanasi
4. Invoys
5. Yo'l-yuk varaqasi (SMR/TTN)
6. Kelib chiqish sertifikat*

Tovarlarga nisbatan boshqa davlat organlari nazoratni amalga oshirishi lozim bo'lganda:

1. Fitosanitar sertifikat raqami/sanasi
2. Karantin ruxsatnomasi raqami/sanasi
3. Veterinariya sertifikat raqami/sanasi
4. Boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar*

V. Tovar haqidagi ma'lumotlar

1. TIF TN kodi (kamida 6 raqamli)
2. Tovarning kelib chiqish mamlakati kodi*
3. Tovar nomi
4. Tovar qiymati (faktura qiymati)
5. Valyuta kodi
6. Vazni (brutto)/kg.
7. Vazni (netto)/kg.
8. Umumiy o‘rinlar soni
9. Qo‘shimcha o‘lchov birligi
10. Qo‘shimcha o‘lchov birligidagi miqdori
11. Etkazib berish sharti

VI. Yuk jo‘natuvchi

1. Yuk jo‘natuvchi davlat
2. Yuridik/jismoniy shaxs
3. Yuk jo‘natuvchining nomi
4. Yuk jo‘natuvchi manzili (viloyat, shahar, tuman, ko‘cha, uy raqami)
5. Elektron pochta manzili*
6. Telefon raqami*

VII. Yuk qabul qiluvchi

1. Yuk qabul qiluvchi davlat
2. Yuridik/jismoniy shaxs
3. Yuk qabul qiluvchining nomi
4. Yuk qabul qiluvchi manzili (viloyat, shahar, tuman, ko‘cha, uy raqami)
5. Elektron pochta manzili*
6. Telefon raqami*
7. Yuk qabul qiluvchining STIRi

VIII. Avtotransport vositasi to‘g‘risida ma‘lumot

1. Transport vositasi davlat raqami
2. Tirkama va yarim tirkama davlat raqami
3. Transport vositasi rusumi va modeli
4. Transport turi
5. Ro‘yxatga olingan davlat
6. Kuzov raqami
7. Transportning identifikatsiya raqami(VIN)
8. Dvigatel raqami
9. Dvigatel hajmi (sm³)
10. Shassi raqami
11. Ishlab chiqarilgan yili
12. Transport vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvoohnoma raqami
13. Bojxona to‘lovlari summasi ta‘minlanganlik identifikatsiya raqami*

IX. Tovarni manzilga yetkazib berish uchun mas‘ul shaxs

1. Familiyasi
2. Ismi
3. Otasining ismi*
4. Pasport raqami (seriya, raqami va kim tomonidan berilgan)
5. Kim tomonidan berilgan
6. Fuqaroligi
7. Yukni yetkazib berishga mas‘ul shaxsning manzili

X. Yuk konteyneri to‘g‘risida ma‘lumot

1. Yuk konteyneri (bor yoki yo‘q) (yuk konteynerda tashilganda)
2. Yuk konteyneri raqami (yuk konteynerda tashilganda)

* taqdim etilishi majburiy xususiyatga ega bo‘lmagan ma‘lumotlar;

** tashuv xorijiy transport vositalarida tashilayotgan hollarda xalqaro avtomobil qatnovlari to'g'risidagi bitimga muvofiq ruhsatnoma (dozvol) talab etilganda.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi dastlabki elektron ma'lumotlarni taqdim etish, ro'yxatdan va o'tkazish ulardan foydalanish tartibi haqidagi nizomga
3-ILOVA

Temir yo'l transportida tashilayotgan tovarlar va transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar, ekipaj a'zolari va ularning bagajlari to'g'risida bojxona organlariga oldindan taqdim etiladigan dastlabki axborot tarkibi

I. Dastlabki axborotni taqdim qiluvchi shaxs haqidagi ma'lumot

Jismoniy shaxs

1. F.I.O/(yuridik shaxsning nomi)
2. STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Pasport ma'lumotlari (seriyasi va raqami, berilgan vaqti, kim tomonidan berilgan)
4. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston rezidentlari uchun)*
5. Fuqaroligi
6. Manzili
7. Telefon raqami/Elektron pochta manzili (email)

Yuridik shaxs

1. Nomi
2. STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Manzili (yuridik manzili)
4. Elektron pochta manzili (email)

II. Umumiy ma'lumotlar

1. Harakat yo'nalishi (Im, Ek, Tr)
2. Yuk jo'natuvchining STIRi (mavjud bo'lsa)
3. Yuk jo'natuvchining nomi va manzili
4. Yuk jo'natuvchi davlat
5. Yuk jo'natuvchi temir yo'l stansiyasi
6. Yuk qabul qiluvchining STIRi (tovarlar O'zbekiston Respublikasiga import qilinganda)
7. Yuk qabul qiluvchining nomi va manzili
8. Yuk qabul qiluvchi davlat
9. Yuk yetib borishi belgilangan davlat
10. Yuk jo'natish sanasi
11. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga yetib kelish vaqti va sanasi
12. Yuk yetib kelishi belgilangan temir yo'l stansiyasi
13. Yuk yetib kelishi belgilangan chegara bojxona posti
14. Harakat tarkibi raqami
15. Poyezd indeksi
16. Harakat tarkibi bo'yicha yukli, yuksiz va yo'lovchi vagon soni
17. Vagon raqami
18. Konteyner raqami

III. Tovarga tegishli yo'l-yuk hujjatlari

1. Hujjat turi
2. Hujjat raqami
3. Hujjat sanasi
4. Invoys
5. Yuk xati (XTYuTSh-xalqaro temir yo'l tashish shartnomasi (CMGS))
6. Kelib chiqish sertifikat*

Tovarlarga nisbatan boshqa davlat organlari nazoratni amalga oshirishi lozim bo'lganda:

1. Fitosanitar sertifikat raqami/sanasi

2. Karantin ruxsatnomasi raqami/sanasi
3. Veterinariya sertifikatini raqami/sanasi
4. Boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar*

IV. Tovar haqidagi ma'lumotlar

1. TIF TN kodi (kamida 6 raqamli)
2. Tovarining kelib chiqish mamlakati kodi*
3. Tovar nomi
4. Tovar qiymati (faktura qiymati)
5. Valyuta kodi
6. Vazni (brutto)/kg.
7. Vazni (netto)/kg.
8. Umumiy o'rinlar soni
9. Qo'shimcha o'lchov birligi
10. Qo'shimcha o'lchov birligidagi miqdori
11. Valyuta kursi*
12. Etkazib berish sharti

V. Yo'lovchilar, vagon kuzatuvchilari va ularning bagajlarini tashishda taqdim etiladigan ma'lumotlar

1. Harakat tarkibi raqami
2. Rejalashtirilgan jo'nash sanasi
3. Jadval bo'yicha jo'nab ketish vaqti (jo'nash mamlakatining vaqti bilan)
4. Rejalashtirilgan yetib borish sanasi
5. Jadval bo'yicha yetib borish vaqti (etib borish mamlakatining vaqti bilan)
6. Temir yo'l harakat tarkibining jo'nash stansiyasi
7. Temir yo'l harakat tarkibining yetib borish stansiyasi
8. Rasmiy yo'l hujjati raqami
9. Rasmiy yo'l hujjatini bergan mamlakat va tashkilot*
10. Rasmiy yo'l hujjati toifasi*
11. Rasmiy yo'l hujjatining amal qilish muddati*
12. F.I.O.
13. Millati*
14. Tug'ilgan sanasi*
15. Jinsi
16. Yo'lovchi uchun ajratilgan o'rindiqlik raqami
17. Poyezd kuzatuvchilari va brigada a'zolari soni*
18. Poyezd kuzatuvchilari va brigada a'zolari tomonidan kuzatuvga olingan yuklar*
19. Bagajining vazni
20. Bagajining o'rinlar soni
21. Harakat tarkibidagi jami yo'lovchilar soni
22. Yashash manzili*
23. Bo'lish mamlakatidagi yashash manzili*
24. Elektron pochta manzili*
25. Aloqa telefonlari*
26. Chipta bron qilingan sana*
27. Chipta olingan/sotib olingan shahar*
28. Chiptani olish/sotib olish sanasi*
29. Chipta raqami*
30. Chipta toifasi (biznes, ekonom)
31. Ro'yxatdan o'tish joyi*
32. Bron kodi va nazorat raqami*

* taqdim etilishi majburiy xususiyatga ega bo'lmagan ma'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi dastlabki elektron ma'lumotlarni taqdim etish, ro'yxatdan va o'tkazish ulardan foydalanish tartibi haqidagi nizomga
4-ILOVA

Avia transportda tashilayotgan tovarlar va transport vositalari, shu jumladan yo'lovchilar, ekipaj a'zolari va ularning bagajlari to'g'risida bojxona organlariga oldindan taqdim etiladigan dastlabki axborot tarkibi

I. Dastlabki axborotni taqdim qiluvchi shaxs haqidagi ma'lumot

Jismoniy shaxs

1. F.I.O/(yuridik shaxsning nomi)
2. STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Pasport ma'lumotlari (seriyasi va raqami, berilgan vaqti, kim tomonidan berilgan)
4. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston rezidentlari uchun)*
5. Fuqaroligi
6. Manzili
7. Telefon raqami/Elektron pochta manzili (email)

Yuridik shaxs

1. Nomi
2. STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Manzili (yuridik manzili)
4. Elektron pochta manzili (email)

II. Umumiy ma'lumotlar

1. Harakat yo'nalishi
2. Yuk jo'natuvchi davlat
3. Yuk jo'natuvchi davlat kodi
4. Yuk jo'natuvchi nomi
5. Yuk jo'natuvchi manzili
6. Yuk qabul qiluvchi davlat
7. Yuk qabul qiluvchi nomi
8. Yuk qabul qiluvchi manzili
9. Yuk qabul qiluvchi STIRi (tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan taqdirda)
10. Yuk jo'natilgan sana
11. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga yetib kelish sanasi
12. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga yetib kelish vaqti

III. Tashuvchi

1. Agentning nomi, kodi va joylashgan shahri*
2. Agentning IATA kodi*
3. Birinchi tashuvchining belgilangan manzili (IATA ro'yxati bo'yicha aeroport yoki shaharning uchtalik kodi)*
4. Birinchi tashuvchining nomi va IATA kodi*
5. Ikkinchi tashuvchining belgilangan manzili (IATA ro'yxati bo'yicha aeroport yoki shaharning uchtalik kodi)*
6. Ikkinchi tashuvchining nomi va IATA kodi*
7. Uchinchi tashuvchining belgilangan manzili (IATA ro'yxati bo'yicha aeroport yoki shaharning uchtalik kodi)*
8. Uchinchi tashuvchining nomi va IATA kodi*
9. Barcha summalarning valyuta kodi (IATA standartlari bo'yicha qabul qilingan xalqaro kodi)*
10. Umumiy yig'imlar summasi*

IV. Tovarga tegishli yo‘l-yuk hujjatlari

1. Hujjat kodi
2. Hujjat raqami
3. Hujjat sanasi
4. Invoys
5. Yuk avianakladnoyi (Air Waybill)
6. Kelib chiqish sertifikat*

Tovarlarga nisbatan boshqa davlat organlari nazoratni amalga oshirishi lozim bo‘lganda:

1. Fitosanitar sertifikat raqami/sanasi
2. Karantin ruxsatnomasi raqami/sanasi
3. Veterinariya sertifikat raqami/sanasi
4. Boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar*

V. Tovar haqidagi ma’lumotlar

1. TIF TN kodi (kamida 6 raqamli)
2. Tovarning kelib chiqish mamlakati kodi*
3. Tovar nomi
4. Tovar qiymati (faktura qiymati)
5. Valyuta kodi
6. Vazni (brutto)/kg.
7. Vazni (netto)/kg.
8. Umumiy o‘rinlar soni
9. Qo‘shimcha o‘lchov birligi
10. Qo‘shimcha o‘lchov birligidagi miqdori
11. Etkazib berish sharti
12. To‘lov to‘lanadigan og‘irlik*
13. Umumiy tarif va yig‘imlar*
14. Og‘irlik uchun yig‘im summasi*

VI. Transport bo‘yicha ma’lumotlar

1. Aviakompaniya kodi
2. Reys raqami
3. Rejalashtirilgan jo‘nash sanasi
4. Jadval bo‘yicha uchib ketish vaqti (uchish mamlakatining vaqti bilan)
5. Rejalashtirilgan uchib kelish sanasi
6. Jadval bo‘yicha uchib kelish vaqti (qo‘nish mamlakatining vaqti bilan)
7. Havо kemasining jo‘nash aeroporti
8. Havо kemasining dastlabki uchib kelish aeroporti
9. Havо kemasining keyingi/yakuniy uchib kelish aeroporti

VII. Yo‘lovchilar, ekipaj a‘zolari va ularning bagajlarini tashishda taqdim etiladigan ma’lumotlar

API ma’lumotlari:**

1. Aviakompaniya kodi
2. Reys raqami
3. Rejalashtirilgan jo‘nash sanasi
4. Jadval bo‘yicha uchib ketish vaqti (uchish mamlakatining vaqti bilan)
5. Rejalashtirilgan uchib kelish sanasi
6. Jadval bo‘yicha uchib kelish vaqti (qo‘nish mamlakatining vaqti bilan)
7. Havо kemasining jo‘nash aeroporti
8. Havо kemasining dastlabki uchib kelish aeroporti
9. Havо kemasining keyingi/yakuniy uchib kelish aeroporti
10. Rasmiy yo‘l hujjati raqami

11. Rasmiy yo‘l hujjatini bergan mamlakat va tashkilot
12. Rasmiy yo‘l hujjati toifasi
13. Rasmiy yo‘l hujjatining amal qilish muddati
14. F.I.O.
15. Millati
16. Tug‘ilgan sanasi
17. Jinsi
18. Yo‘lovchi uchun ajratilgan o‘rindiqli raqami
19. Yo‘lovchining maqomi (yo‘lovchi, ekipaj)
20. Bagajining vazni
21. Bagajining o‘rinlar soni
22. Bagajining yorlig‘i raqamlari
23. Reysdagi jami yo‘lovchilar soni
24. Yashash manzili*
25. Bo‘lish mamlakatidagi yashash manzili*
26. Elektron pochta manzili*
27. Aloqa telefonlari*
28. Chipta bron qilingan sana*
29. Chipta olingan/sotib olingan shahar*
30. Chiptani olish/sotib olish sanasi*
31. Chipta raqami*
32. Chipta toifasi
33. Ro‘yxatdan o‘tish joyi*
34. Bron kodi va nazorat raqami

PNR ma’lumotlari:***

1. Ismga taalluqli PNR ma’lumotlar
2. PNR lokatori*
3. PNR yaratilgan sana
4. Manzil ma’lumotlari (yo‘lovchi tomonidan taqdim etilgan taqdirda)*
5. Turagent to‘g‘risidagi ma’lumotlar
6. Dastlab rejalashtirilgan safar sanasi
7. Reys oxirgi marotaba bron qilingan sana
8. PNR bo‘yicha barcha safar yo‘nalishlari
9. Chipta rasmiylashtirish bandlaridagi barcha ma’lumotlar
10. To‘lovning barcha shakllari (naqd to‘lov, elektron to‘lov, kredit kartochkasining raqami va amal qilish muddati, chiptaga oldindan amalga oshirilgan to‘lov xabari, valyuta)*
11. To‘lovni amalga oshirgan shaxs/agentlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar*
12. Ro‘yxatga oluvchi agentning identifikatori
13. Ro‘yxatdan o‘tish vaqti*
14. Ro‘yxatdan o‘tganlik holati*
15. Oldindan so‘ralgan joylar
16. Reys yopilgandan keyingi haqiqiy joylar (ro‘yxatga olish tugatilgandan so‘ng taqdim etiladi)*

* taqdim etilishi majburiy xususiyatga ega bo‘lmagan ma’lumotlar;

** O‘zbekiston Respublikasiga reyslarni amalga oshiruvchi xorijiy davlatlarning havo kemasi foydalanuvchilari yo‘lovchi, ekipaj a‘zolari va ularning bagajlari to‘g‘risidagi API ma’lumotlarni Xalqaro fuqarolik aviatsiyasi konvensiyasining (1944-yil 7-dekabr) xalqaro standartlari hamda Fuqarolik aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (ICAO), Jahon bojxona tashkiloti (WCO) va Xalqaro havo transporti tashkiloti (IATA) xalqaro tashkilotlarning uslubiy tavsiyalariga muvofiq taqdim etadilar;

*** O‘zbekiston Respublikasiga reyslarni amalga oshiruvchi xorijiy davlatlarning havo kemasi foydalanuvchilari PNR ma’lumotlarni Xalqaro fuqarolik aviatsiyasi konvensiyasi (1944-yil 7-dekabr), Fuqarolik aviatsiyasi xalqaro tashkilotining (ICAO) Yo‘lovchilarni ro‘yxatga olish qaydlari (PNR) Doc.9944 va xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa standartlar tavsiyalariga muvofiq taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishga mo'ljallangan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi dastlabki elektron ma'lumotlarni taqdim etish, ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi haqidagi nizomga
5-ILOVA

Xalqaro kuryerlik jo'natmalari orqali jismoniy shaxslar nomiga kelayotgan tovarlar to'g'risida bojxona organlariga taqdim etiladigan dastlabki axborot tarkibi*

I. Dastlabki axborotni taqdim qiluvchi shaxs haqidagi ma'lumot

Jismoniy shaxs

1. F.I.O/(yuridik shaxsning nomi)
2. Pasport ma'lumotlari (seriyasi va raqami) yoki STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (O'zbekiston rezidentlari uchun) **
4. Fuqaroligi
5. Manzili
6. Telefon raqami/elektron pochta manzili (email)

Yuridik shaxs

1. Nomi
2. STIR (O'zbekiston rezidentlari uchun)
3. Manzili (yuridik manzili)
4. Elektron pochta manzili (email)

II. Umumiy ma'lumotlar

1. Qabul qiluvchining familiyasi, ismi va otasining ismi
2. Qabul qiluvchining manzili
3. Qabul qiluvchining pasport ma'lumotlari (seriya va raqami) yoki STIR
4. Jo'natuvchi davlat
5. Jo'natuvchining nomi (jismoniy shaxs bo'lsa F.I.O.)
6. Jo'natuvchi manzili
7. Elektron pochta manzili
8. Jo'natmaning tavsifi
9. Jo'natmaning qiymati
10. Xalqaro kuryerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi shaxs nomi

III. Tovarga tegishli yo'l-yuk hujjatlari

1. Hujjat kodi
2. Hujjat raqami
3. Hujjat sanasi
4. Tijorat hujjatlari

IV. Tovar haqidagi ma'lumotlar

1. TIF TN kodi (agar bo'lsa)
2. Tovar nomi
3. Tovar qiymati (faktura qiymati)
4. Valyuta kodi
5. Vazni (brutto)/kg.
6. Umumiy o'rinlar soni
7. Qo'shimcha o'lchov birligi
8. Qo'shimcha o'lchov birligidagi miqdori

* yozma xat-xabarlar (mayda paketlardan tashqari), diplomatik pochta va konsullik pochta qoplariga tatbiq etilmaydi;

** taqdim etilishi majburiy xususiyatga ega bo'lmagan ma'lumotlar.”.

2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llanilishi ruxsat etilgan onlayn nazorat-kassa mashinalari, virtual kassa va fiskal modulga qo'yiladigan texnik talablarda:

a) 3-bandga:

quyidagi mazmundagi to‘qqizinchi xatboshi qo‘shilsin:

“raqamli markirovkalangan mahsulotlarni raqamli identifikatsiyalash vositasining markirovkalash kodlari to‘g‘ri o‘qilishini va aniqlanishini ta‘minlashi maqsadida ISO/IEC 15415 “Axborot texnologiyalar. Avtomatik identifikatsiyalash va ma‘lumotlarni yig‘ish texnologiyalari. Chop etish sifatini baholash uchun shtrix kodi ramzlarini test spetsifikatsiyasi. Ikki o‘lchamli ramzlar” (ISO/IEC 15415:2011 “Information technology — Automatic identification and data capture techniques — Bar code print quality test specification — Two-dimensional symbols”) standartiga muvofiq maxsus uskunalar, ya‘ni ma‘lumotlarni yig‘ish terminallari, lazer skanyerlari yoki boshqa shtrix kod o‘qish qurilmasiga ega bo‘lishi”;

to‘qqizinchi — yigirma beshinchi xatboshilar tegishlicha o‘ninchi — yigirma oltinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 6-bandga:

quyidagi mazmundagi sakkizinchi xatboshi qo‘shilsin:

“Raqamli markirovkalangan mahsulotlarni raqamli identifikatsiyalash vositasining markirovkalash kodlari to‘g‘ri o‘qilishini va aniqlanishini ta‘minlashi maqsadida, ISO/IEC 15415 “Axborot texnologiyalar. Avtomatik identifikatsiyalash va ma‘lumotlarni yig‘ish texnologiyalari. Chop etish sifatini baholash uchun shtrix kodi ramzlarini test spetsifikatsiyasi. Ikki o‘lchamli ramzlar” (ISO/IEC 15415:2011 “Information technology — Automatic identification and data capture techniques — Bar code print quality test specification — Two-dimensional symbols”) standartiga muvofiq maxsus uskunalar, ya‘ni ma‘lumotlarning yig‘ish terminallari, lazer skanyerlari yoki boshqa shtrix kod o‘qish qurilmasiga ega bo‘lishi”;

sakkizinchi — yigirmanchi xatboshilar tegishlicha to‘qqizinchi — yigirma birinchi xatboshilar deb hisoblansin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-noyabrdagi 737-son qarori bilan tasdiqlangan 2021-2022-yillarda identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilinadigan mahsulotlar ro‘yxati quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2021-2022-yillarda identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilinadigan mahsulotlar

RO‘YXATI

T/r	Mahsulotning nomi	TIF TN kodi	Majburiy raqamli markirovkalash boshlanadigan sana
1.	Tamaki mahsulotlari	2402 90 000 0	
2.	Alkogol mahsulotlari (pivo mahsulotlaridan tashqari)	2204, 2205, 2206, 2207, 2208	2021-yil 1-yanvar
	Pivo mahsulotlari	2203	2021-yil 1-aprel
3.	Maishiy texnika	8414, 8415, 8418, 8422, 8423, 8450, 8508, 8509, 8510, 8516, 8518, 8519, 8521, 8525, 8527, 8528	2021-yil 1-dekabr
4.	Dori vositalari va tibbiy buyumlar	3003, 3004	2022-yil 1-fevral
5.	Suv va salqin ichimliklar	2009, 2201, 2202	2022-yil 1-mart
			”.

4. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-iyuldagi 421-son qarori bilan tasdiqlangan Kema haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda kema haydovchisi guvohnomalarini berish tartibi to‘g‘risida nizomning 56-bandi ikkinchi xatboshidagi “ma‘muriy ishlar bo‘yicha” so‘zlari “jinoyat ishlar bo‘yicha” so‘zlari bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa

tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida nizamning 13-bandi **ikkinchi xatboshisidan** “ma‘muriy ishlar bo‘yicha sudning” so‘zlari chiqarib tashlansin.

6. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 833-son qarori bilan tasdiqlangan Mahsulotlarni identifikatsiya vositalari orqali raqamli markirovkalash va ularning aylanmasini kuzatib borish qoidalarining 2-bandi “k” **kichik bandi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“k) O‘zbekiston Respublikasi hududidan eksportga olib chiqib ketish va tranzit uchun mo‘ljallangan mahsulotlarga”.

7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrda 485-f-son farmoyishining 5-bandidagi “2021-yilning 1-aprelga” so‘zlari “2022-yilning 1-oktabrga” so‘zlari bilan almashtirilsin.

(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/322/0481-son)